

37

1301

M 34

„Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi,
ajdodlar o'giti bilan birga singadi“

ISLOM KARIMOV

MA'NAVIYAT – QALB QUYOSHI

(ma'lumotnoma)

2032276



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT—2011

TATU KUTUBXONASI
369 000-SO'XLI

УДК: 37.017.92 (575.1)(075)

ББК 71.04 (5У) я2

М34

Matnlarni to'plab, nashrga
tayyorlovchilar:

FARHOD XOLSAIDOV
O'RINBOY BOBOYOROV
FERUZA HASANOVA

Mas'ul muharrir:

NAIM KARIMOV, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

MUNAVVAR ISMOILOVA, pedagogika fanlari nomzodi,
FAXRIDDIN MUSAYEV, Toshkent Arxitektura qurilish
instituti qoshidagi akademik litseyi «Til va adabiyot,
ma'naviyat» kafedrasini oliy toifali o'qituvchisi.

Mazkur majmua o'quvchi-yoshlarning ma'naviy bilimlarini shakllantirishga, ularni har tomonlama yetuk bilimli, o'z Vatanga, xalqiga e'tiqodi baland ruhda kamol topishga qaratilgan bo'lib, ular bilishi lozim bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek, „Xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadlar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi“.

Kitob umumta'lim maktab o'quvchi va o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

B $\frac{0701000000 - 28}{353(04) - 2011}$ Buyurtma varag'i — 2011

© «O'qituvchi» NMIU, 2008-y.

© «O'qituvchi» NMIU, 2011-y.

ISBN 978-9943-02-180-8

Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri.



DAVLAT RAMZLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I



O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhaddida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqlikni anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu — yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Amir Temur davlati bayrog'i ham moviy rangda edi.

Bayroqdagi oq rang — muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritgichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir.

Yashil rang — tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

Navqiron yarimoy tasviri bizning tarixiy an'alarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda, u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

Yulduzlar barcha uchun ilohiy sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'alarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadlaridagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida „nujum ilmi“ taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi o'n ikki yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilish ramzi sifatida tushunish lozim.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI



O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2-iyul kuni tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiylar, uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o'ng tomonida bug'doy boshlari, so'l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iborat. Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarimoy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida himmat, oliyjanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga „O'zbekiston“ so'zi bitilgan.

„Gerb“ so‘zining tarixi haqida qisqacha ma‘lumot:

„Gerb“ so‘zi nemischa „erbo“ so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan O‘g‘uzxon davrida ham turkcha „tamg‘a“ so‘zi aynan shu ma‘noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy „Tanlangan tarixlar“ kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mulkini o‘g‘illariga ulush sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in‘om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edi.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida tasdiqlangan.

Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzi bo'lib, davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi har bir fuqaroning vatanparvarlik burchidir. Madhiya musiqa va she'r vositasida ifodalanadi hamda davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida ijro etiladi. Madhiya maxsus qonun bilan tasdiqlanadi.

Madhiya — „madh“ (maqtoV) so'zidan kelib chiqqan. Madhiya — gimn o'z mustaqilligiga ega bo'lgan, rivojlangan har bir mamlakatning alomati — ramzidir.

Madhiya tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi so'zini shoir Abdulla Oripov, musiqasini bastakor Mutal (Mutavakkil) Burhonov yozgan.

Davlat ramzlari — bu mamlakatni mustaqil davlat sifatida e'tirof etish uchun sabab bo'ladigan tushunchalardir. Mustaqil davlat bo'lish uchun har bir davlatning o'z hududi, davlat tili, Konstitutsiyasi, aholisi (xalqi), davlat ramzlari, fuqaroligi, armiyasi, Oliy hokimiyat organlari, pul birligi bo'lishi zarur.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

*Mutal (Mutavakkil) BURHONOV musiqasi
Abdulla ORIPOV so'zi*

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin, toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas imoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
~~Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,~~
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!



O'ZBEKISTON — VATANIM MANIM

O'zbekiston — suveren demokratik respublika.

Rasmiy nomi — O'zbekiston Respublikasi.

Hududi — 448,9 ming km. kv.

Aholisi — 28 000 000 dan ortiq (2010-y.).

Poytaxti — Toshkent shahri.

Davlat tili — o'zbek tili.

Iqlimi — issiq-quruq, mo'tadil.

Davlat tuzilishi — Respublika.

Davlat boshlig'i — Prezident.

Pul birligi — so'm (1994- yil 1- iyulda muomalaga kiritilgan).

Qoraqalpog'iston Respublikasi — 1992-yil 9-yanvar.

Mamlakat tarkibidagi viloyatlarning tashkil etilgan vaqti:

1. *Qashqadaryo viloyati* — 1924-yil 12-iyul.
2. *Toshkent viloyati* — 1938-yil 15-yanvar.
3. *Samarqand viloyati* — 1938-yil 15-yanvar.
4. *Xorazm viloyati* — 1938-yil 15-yanvar.
5. *Farg'ona viloyati* — 1938-yil 15-yanvar.
6. *Buxoro viloyati* — 1938-yil 15-aprel.
7. *Andijon viloyati* — 1941-yil 6-mart.
8. *Namangan viloyati* — 1941-yil 6-mart.
9. *Surxondaryo viloyati* — 1941-yil 6-mart.
10. *Sirdaryo viloyati* — 1963-yil 16-fevral.
11. *Jizzax viloyati* — 1973-yil 29-dekabr.
12. *Navoiy viloyati* — 1982-yil 20-aprel.

1991-yil 31-avgustda qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida“gi Konstitutsiyaviy qonun Konstitutsiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi



Andijon viloyati



Buxoro viloyati



Farg'ona viloyati



Jizzax viloyati



Namangan viloyati



Navoiy viloyati



Qashqadaryo viloyati



Sirdaryo viloyati



Samarqand viloyati



Surxondaryo viloyati



Toshkent viloyati



Xorazm viloyati



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ISLOM ABDUG'ANIYEVICH
KARIMOV**

*O'ZBEKISTON XALQI QUYIDAGI YUTUQLARNI HAQLI
RAVISHDA ISLOM KARIMOV NOMI VA FAOLIYATI BILAN
BOG'LAYDI:*

*DAVLAT MUSTAQILLIGIGA ERISHISH VA UNI
MUSTAHKAMLASH; DEMOKRATIK, HUQUQIY DAVLAT VA
FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI; O'Z
TARAQQIYOT YO'LINI ANIQLAB OLISH, BOZOR
MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI,*

KUCHLI IJTIMOY SIYOSATNING AMALGA OSHIRILISHI;

JAMIYATNING MA'NAVIY YANGILANISHI;

*INSONIYAT, JAMIYAT TAQDIRI BO'LGAN SOG'LOM AVLOD
UCHUN KURASH;*

*MAMLAKAT XALQARO OBRO'-E'TIBORINING OSHISHI,
JAHON XO'JALIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI;*

*SIYOSIY BARQARORLIKNING, FUQAROLAR
OSOYISHTALIGI VA MILLATLARARO HAMJIHATLIKNING
SAQLANIB TURISHI.*

— *1991-yil 29-dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovi asosida saylangan.*

— *1995-yil 26-martda bo'lib o'tgan umumxalq referendumi yakunlariga ko'ra, Islom Karimovning Prezidentlik vakolati 2000-yilga qadar uzaytirildi.*

— *2000-yili muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, Islom Karimov 7 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.*

2007-yil 23-dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylandi.

HUKUMAT BOSHIG'I

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

(O'zR Konstitutsiyasi, 89-modda)

ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BIRINCHI PREZIDENTI

Davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqandda tug'ilgan. O'rta Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xo'jaligi institutini tugatgan. 1960-yildan „Tashselmash“ zavodida avval master yordamchisi, so'ng master, texnolog; 1961-yildan Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor; 1966-yildan O'zbekiston Davlat plan komitetida „Fan va yangi texnikani joriy etish“ bo'limining bosh mutaxassisi vazifalarida mehnat qilgan va shu tariqa O'zbekiston

Davlat plan komiteti raisining birinchi o‘rinbosari lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

1983-yildan O‘zbekiston SSR Moliya vaziri, 1986-yildan O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisining o‘rinbosari — respublika Davlat plan komitetining raisi vazifalarida faoliyat ko‘rsatdi. 1986-yildan O‘zbekiston KP Qashqadaryo viloyati komitetining birinchi kotibi, 1989- yil iyunidan boshlab esa O‘zbekiston KP MK birinchi kotibi vazifalarida ishladi. 1990-yil 24-martda O‘zbekiston Oliy Kengashining sessiyasida O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

I. A. Karimov 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi.

I. A. Karimov 1991-yil 29-dekabrda birinchi bor muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

I. A. Karimov O‘zbekistonda davlat tuzumini mustahkamlashda, respublikaning ichki va tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashda jonbozlik ko‘rsatmoqda.

1995-yil 26-martda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumini yakunlariga ko‘ra, I.A.Karimovning Prezidentlik vakolati 2000-yilga qadar uzaytirildi.

I. A. Karimov „Istiqlol yo‘li: muammolar va rejalar“, „O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li“, „O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat“, „O‘zbekiston — bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li“, „Bizdan ozod va obod Vatan qolsin“, „O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida“, „O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari“, „Istiqlol va ma‘naviyat“ va boshqa bir qator kitoblar muallifidir.

I. A. Karimov „O‘zbekiston Qahramoni“ unvoni va „Oltin Yulduz“ medali sohibi (1994), „Mustaqillik“ (1996), „Amir Temur“ (1998) ordenlari bilan mukofotlangan.

I. A. Karimov xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash, ma‘naviyatni tiklash, sportni rivojlantirish sohasidagi xizmatlari uchun bir qator xalqaro tashkilotlar va nufuzli xorijiy davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlangan.

U oilali, ikki nafar farzandi, uch nabirasi bor. Rafiqasi T.A.Karimova – iqtisodchi ilmiy xodim.

Bugungi kunda dunyo siyosiy xaritasida O‘zbekiston davlati o‘z chegaralari bilan qat’iy belgilab qo‘yilgan. Yuzlab davlatlar mamlakatimiz mustaqilligini tan olgan. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davlatimiz elchixonalari ishlab turibdi. Jahonning nufuzli tashkilotlariga mamlakatimiz a‘zo etib qabul qilingan.

Ajdodlarimiz yillar davomida orzu qilgan dorilamon kunlarni ko‘rish biz bugungi kun kishilariga nasib etdi. O‘lkamizda tinchlik va xotirjamlikning barqarorligi, Vatan mustaqilligining tobora mustahkamlanayotganligi, Vatanimiz dunyo uzra yuksakroq mavqega ega bo‘layotganligining sabablari Prezident Islom Karimov nomi bilan chambarchas bog‘liq. Yurtboshimiz har bir sohada o‘tkazilayotgan tub islohotlarning, xususan, „Ta‘lim to‘g‘risida“gi qonun va „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ „2004–2009-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida“ kabi o‘z vaqtida isloh qilingan muhim tarixiy hujjatlarning bosh g‘oya muallifi hamdir.





O'ZBEKISTON — PREZIDENTLIK RESPUBLIKASI

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

(O'zR Konstitutsiyasi, 94-modda)

VAZIRLAR MAHKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi...

(O'zR Konstitutsiyasi, 98-modda)



Qonun chiqaruvchi hokimiyat Ikki palatali Oliy Majlis

1. **Senat** (yuqori palata) — 100 nafar deputat faoliyat ko'rsatadi.

2. **Qonunchilik palatasi** (quyi palata) — 150 nafar deputat doimiy faoliyat ko'rsatadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FAXRIY UNVON, ORDEN VA MEDALLARI

1993- yil 7- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan birinchi orden — birinchi va ikkinchi darajali „Sog'lom avlod uchun“ ordeni ta'sis etildi.

1994- yil 5- mayda quyidagilar ta'sis etildi:

- „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni va „Oltin Yulduz“ medali.
- „Mustaqillik“ ordeni.
- „Do'stlik“ ordeni.
- „Jasorat“ medali.
- „Shuhrat“ medali.

1995- yil 30- avgustda quyidagilar ta'sis etildi:

- „Mehnat shuhrati“ ordeni.
- Birinchi va ikkinchi darajali „Shon-sharaf“ ordeni.

1996- yil 26- aprelda:

- „Amir Temur“ ordeni.

1996- yil 29- avgustda:

- „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni.

1998- yil 28- avgustda:

- „El-yurt hurmati“ ordeni.

2000- yil 30- avgustda:

- „Jaloliddin Manguberdi“ ordeni.

1996- yil 26- aprelda O'zbekiston Respublikasining quyidagi faxriy unvonlari ta'sis etilgan:

- „O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi“.
- „O'zbekiston Respublikasi fan arbobi“.
- „O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi“.
- „O'zbekiston Respublikasi xalq artisti“.
- „O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi“.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ORDEN VA MEDALLARI



- „O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri“.
- „O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi“.
- „O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi“.
- „O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi“ (2000- yil).
- „O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aloqa xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan quruvchi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan me‘mor“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan paxtakor“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan pillachi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustoz“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan transport xodimi“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi“ (1996- yil 27- dekabrda ta‘sis etilgan).
- „O‘zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy, savdo sohasida xizmat ko‘rsatgan xodim“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan chorvador“.
- „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist“.
- „O‘zbekiston iftixori“ (1998- yil 25- avgustda ta‘sis etilgan).



UMUMXALQ BAYRAM KUNLARI

- 1-yanvar — Yangi yil bayrami.
- 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami.
- 21-mart — Navro'z bayrami.
- 9-may — Xotira va qadrlash kuni.
- 1-sentabr — Mustaqillik kuni.
- 1-oktabr — O'qituvchilar va murabbiylar kuni.
- 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun.

Iydi ramazon hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlari ham bayram sifatida nishonlanadi va dam olish kuni hisoblanadi.

Muhim ijtimoiy voqealarga bag'ishlangan yillar

- 1996-yil — „Amir Temur yili“.
- 1997-yil — „Inson manfaatlari yili“.
- 1998-yil — „Oila yili“.
- 1999-yil — „Ayollar yili“.
- 2000-yil — „Sog'lom avlod yili“.
- 2001-yil — „Onalar va bolalar yili“.
- 2002-yil — „Qariyalarni qadrlash yili“.
- 2003-yil — „Obod mahalla yili“.
- 2004-yil — „Mehr-muruvvat yili“.
- 2005-yil — „Sihat-salomatlik yili“.
- 2006-yil — „Homiylar va shifokorlar yili“.
- 2007-yil — „Ijtimoiy himoya yili“.
- 2008-yil — „Yoshlar yili“.
- 2009-yil — „Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili“.
- 2010-yil — „Barkamol avlod yili“.
- 2011-yil — „Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili“.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING POYTAXTI—TOSHKENT

O'zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahridir. Toshkent Markaziy Osiyoning eng yirik va qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, hozirgi paytda aholisi 2 500 000 dan oshmoqda.

2009-yilda shaharning 2200 yilligi nishonlandi.

O'rta Osiyo xonliklari davrida Toshkent 70 ming aholisi bilan savdogarlar va kosib-hunarmandlar shahri bo'lib, o'z atrofidagi aholining savdo maydoni vazifasini o'tagan.

Mustaqillik yillarida shahar tarixida yangi davr boshlandi. U butun O'rta Osiyo mintaqasida barcha shaharlarga o'rnak bo'lib turgan poytaxtdir.

Toshkent — ko'p millatli shahar. Aholisining 53,1 foizini o'zbeklar, qolgan qismini ruslar, tatarlar, koreyslar, qozoqlar va boshqa millat vakillari tashkil etadi.

Toshkent shahri — 2200 yoshda

Toshkent miloddan avvalgi III—IV asrlardayoq mavjud edi. Uning shahar sifatidagi mavqeyi Buyuk ipak yo'li bo'ylab xalqaro karvon savdosi yuzaga kelgan davrda ham mavjud bo'lgan.

Mazkur shahar yillar davomida mintaqa xalqlari tarixida muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy markaz vazifasini o'tab kelgan. Yozma manbalarda keltirilishicha, Toshkentning qadimiy nomi „Choch“ bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda u „Choch“, „Shosh“, „Shoshkent“, „Madinat ash-Shosh“, „Binkat“ va „Tarkan“ deb nomlangan.

Shahar „Toshkent“ nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari — Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariyning

asarlarida tilga olinadi. „Tosh“ soʻzi turkcha boʻlib, Shosh koʻrinishini olgan. „Toshkand — toshli qishloq“ demakdir.

Buyuk ipak yoʻlida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarning Xitoy va Hindiston bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol oʻynagan.

Toshkentda turli jamoat tashkilotlarining markazlari, chet el elchixonalari, BMTga qarashli tashkilotlar vakolatxonalari joylashgan. Toshkentda turli xalqaro anjumanlar oʻtkazib turiladi.

Shahar qiyofasida, ayniqsa, mustaqillik yillarida katta oʻzgarishlar roʻy berdi. Bir-biridan koʻrkam binolar, koʻpriklar, yoʻllar qurildi. Mustaqillik maydoni tubdan oʻzgardi.

Toshkent shahrida 500 ga yaqin fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi— mahalla qoʻmitalari mavjud. Toshkentda 362 ta umumtaʼlim maktabi, 11 ta gimnaziya, 23 ta akademik litsey, 30 ta oliy oʻquv yurti (2003—2004-yil) faoliyat koʻrsatmoqda. Toshkent shahri tumanlari soni — 11 ta. (OʻzR Milliy ensiklopediyasi, T., 2004.)

Prezidentimiz I. A. Karimovning 2008-yil 2-apreldagi „Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish toʻgʻrisida“gi qaroriga binoan, Toshkent shahrining 2200 yilligini 2009-yilda keng nishonlash toʻgʻrisidagi taklifi xalqimizning ulugʻ bunyodkorlik va yaratuvchanlik xislatlariga yangicha mazmun-mohiyat bagʻishladi.

Milodiy VII asr oʻrtasida Choch hukmdorining elchisi Sugʻd poytaxti Samarqand podshosi huzuriga elchilik yorligʻi bilan borganligi haqidagi yozma maʼlumotlar bizgacha yetib kelgan.

Abu Rayhon Beruniyning Toshkentning geografik oʻrni haqida maʼlumot beruvchi manbalariga koʻra, IX–XI asrlardagi Toshkent hozirgi „Eski shahar“ miqyosidagi shahar boʻlganligidan dalolat beradi.

Toshkent shahri bino boʻlganidan to hozirga qadar uzluksiz ravishda uzoq Sharqdan to Gʻarbgacha boʻlgan xalqlarning oʻzaro doʻstona savdo iqtisodiy va madaniy aloqalariga, tinch-osoyishta rivojlanishiga xizmat qilib kelgan. Uning „Sharq darvozasi“ deb nomlanishi bejiz emas.

Toshkentlik buyuk adiblar, faylasuflar, ilohiyotchi allomalar, tasavvuf peshvolarining insoniyat maʼnaviy kamoloti yoʻlidagi

xizmatlari jahon miqyosida chuqur hurmat va e'tirofga sazovor bo'lgan.

2007- yilda „Islom Konferensiyasi“ xalqaro tashkiloti tomonidan Toshkent shahriga „Toshkent – Islom madaniyati poytaxti“ maqomi berildi. 2007- yil doirasida o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda jahonning eng yirik olimlari tomonidan Toshkent shahrining tarixiy xizmati yuksak darajada e'tirof etilishi shaharning insoniyat ma'naviy-madaniy hayotida katta o'rin tutishining isbotidir.

Bugungi kunda Toshkent shahri mustaqil O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir. Shaharda olib borilayotgan ulkan obodonchilik ishlari, osmono'par inshootlarning qad rostlashi yurtboshimiz Islom Karimov nomi bilan chambarchas bog'liq.

Toshkent shahrining yuksak nufuzi va xalqaro e'tirofini hisobga olib, UNESCO Bosh Konferensiyasi 2007- yilning 2-noyabrida Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlash, yubiley tadbirlarida UNESCOning ishtirok etishi haqida qaror qabul qildi.

Toshkent shahri jahonning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Arxeologik qazilmalar va yozma manbalar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar shaharning 2200 yoshda deb hisoblanishiga to'la asos bo'lmoqda.

Shahar paydo bo'lgan davrdan boshlab to bugungi kunga qadar mudofaa devori bilan o'ralgan qal'adan jahondagi yirik shaharlardan biri, O'zbekiston Respublikasining poytaxtigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

1991- yil 31- avgustda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Hozirgi kunda Toshkent shahri O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'lishi bilan birga, mamlakatning siyosiy markazi hamdir. Bu yerda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorgohi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, ijtimoiy harakat va partiyalar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining markazlari, chet el elchixonalari, BMT ga qarashli tashkilotlar vakolatxonalari joylashgan.

Toshkent chet ellardagi birodarlashgan shaharlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda, u bir qancha xorijiy shaharlar bilan birodarlashgan.

TOSHKENT shahri respublikaning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan tog'lari etaklarida, 440-480 m balandlikda, Chirchiq

daryosi vodiysida joylashgan. Iqlimi mo'tadil, yillik o'rtacha harorat 13,3°. Chirchiq daryosidan chiqarilgan va butun shahar bo'ylab o'tadigan Bo'zsuv, Salor, Anhor, Qorasuv, Oqqo'rg'on, Bo'rijar, Oqtepa, Qoraqamish va boshqa kanallar uning mikroiklimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Toshkentda boshqaruvning tarixiy-milliy shakli – hokimlik o'rnatildi. 1991- yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining „O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri maqomi va davlat hokimiyati organlari to'g'risida“gi qaroriga muvofiq Toshkentda hokim lavozimi joriy etildi.

Toshkent shahri gerbi

Toshkent shahrining gerbi (ramzi) ham uzoq tarixga ega. Ilk o'rta asrlardayoq Toshkentning o'ziga xos ramzi yuzaga kelgan. VIII asrda shaharning nishoni qoplon(tog' barsi) bo'lgan. Buni ushbu asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan Yabtu Tarnovcha nomi bilan zarb qilingan tangalarning old tomonida qoplon, orqasida esa qang'arlarning ayri tang'ali va sug'd yozuvida „Tarnovcha“ deb bitilgan muhri tasvirida ko'rish mumkin.

Toshkentning O'zbekiston mustaqilligi davridagi gerbi 1996-yilda tasdiqlangan. 2003- yilda gerb tasviriga qisman o'zgartirishlar kiritilgan.

Toshkent shahri ilk o'rta asrlardan to hozirgacha nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun sharq xalqlari hayotida muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy markaz vazifasini o'tab kelmoqda.

Markaziy Osiyo miqyosidagi shaharsozlik Toshkent vohasidagi qadimiy shaharsozlik hayot tarzi tarixiy jarayonlarning uzviy davomidir.

Toshkent qadimiy ikki daryo – Amudaryo va Sirdaryo oralig'idan sirtida, shimoldagi cho'l mintaqasi bilan chegaradosh hududda joylashgan. Buyuk ipak yo'li paydo bo'lgan miloddan avvalgi II–I asrlardan boshlab esa Toshkent xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ulgurji savdo markazlaridan biriga aylangan. Natijada, Toshkent Buyuk ipak yo'lining shimoliy va sharqiy yo'nalishlarida savdo munosabatlarini uyushtirishda muhim manzil bo'lib qoldi.

Toshkentdan o'tuvchi karvon yo'lining ahamiyati ilk o'rta asrlarda (V–VIII asrlar) yanada ortdi. Zero, bu davrda o'troq dehqonchilik vohalaridagi shaharsozlik, jumladan, Toshkent vohasidagi urbanizatsiya Janubiy Qozog'iston mintaqasiga o'z ta'sirini o'tkazdi. V–VI asrlardan boshlab Janubiy Qozog'istonning shaharlar tizimi yuzaga kela boshladi.

Bular Taroz, Turkiston, O'tror oraliqlaridagi dehqonchilik madaniyati markazlari edi. Bu shaharlar IX–XIII asr boshlarida yanada rivojlana boshladi. Savdo iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishda Toshkent bilan ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida vositachilik vazifalari qisman shu shaharlar zimmasiga tushdi. Janubiy Qozog'iston shaharlarining shimoliy o'zbek lahja va shevalarida so'zlovchi aholisi Dashti Qipchoq bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar uchun asosiy ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qilgan. Toshkent shahri qadim zamonlardan boshlab Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlari bilan uzviy aloqalarda bo'lgan. Shu tufayli Toshkent shahri orqali o'tgan qadimiy karvon yo'llari Chorsu maydoni va uning yonida joylashgan „Eski jo'va“ bozorida o'zaro tutashgan. Bu maydondan boshlanuvchi yo'llar esa bir tomoni Samarqandga, ikkinchi tomoni Farg'ona vodiysi tomonga, uchinchisi – Chimkent-Turkiston, Taroz yo'nalishiga, to'rtinchisi esa O'rta Sirdaryo havzasi orqali shimoli-g'arbgga, ya'ni qadimgi rus yerlariga qarab ketgan. Demak, Toshkent o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'li katta tarmoqlarining bosh nuqtasi bo'lib xizmat qilgan.

Toshkent shahrining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari murakkab tarixiy jarayonga ega. Toshkent o'z hududlarining bir necha tarkibiy jarliklar bilan bo'lingani sababli, dastlab bir necha o'zaro aloqador qismlardan shakllangan va yagona shahar organizmi sifatida yashagan. Shaharning dastlabki tayanch markaziy bo'g'inlari miloddan avvalgi III–II asrlarda Chochtepada, keyinroq esa, Toshkent shahrining shimoliy vokzal yaqinidagi hududlarida, nihoyat, IX–X asrlardan boshlab manbalarda Binkat va Toshkent nomlari bilan qayd etilgan „Eski shahar“ning markaziy qismlarida rivojlangan.

Xitoyning tarixiy manbalarida Toshkent Shi, viloyati esa Yuni deb atalgan. Sosoniylar davri Eron podshosi Shopurning milodiy III asrga oid o'rta fors-pahlaviy yozuvli qoyatosh bitigida

Toshkent Choch deb qayd etilgan. VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid sug'd yozma manbalarida ham Toshkent Choch deb tilga olinadi. Toshkent vohasida zarb qilingan xilma-xil ilk o'rta asr bronza tangalari, ularda aks etgan „yag'bu“, „eltebar“, „tudun“, „xvabu“ kabi hokimlik martabalarini bildiruvchi atamalarni tahlil qilish jarayonida Chochning VI–VIII asrlarda turk xoqonligi tarkibidagi nisbiy avtonom huquqlarga ega konfederativ tuzilma ekanligi ma'lum bo'ladi. Hokimlikda markaziy hamda mahalliy boshqaruvning tangalari bir vaqtning o'zida muomalada bo'lgani bu davlatning ichki tizimi konfederativ ekanidan dalolat beradi.

Toshkent shahrining yuqorida qayd etilgan Binkat deb nomlangan davridan boshlab so'nggi ming yillik hayoti asosan eski shahar miqyosida kechgan. Ayni shu davrda shaharning tarixiy dahalarga bo'linishi uchun zamin yaratilgan. Jarliklar va tabiiy suv o'zanlari bilan ajralish qismlararo munosabatlar jadallashgan. Nihoyat, bu jarayon Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor dahalari paydo bo'lishiga olib kelgan.

Har bir dahaning o'z markaziy bozorlari va shu bilan birga, ichki va tashqi savdo munosabatlariga xizmat qiluvchi markaziy „Eski jo'va“ bozori faoliyat ko'rsatgan.

Shahar hayotida dahalarning ahamiyati katta bo'lgan.

Toshkent shahri mahalla jamoatchiligi asosida uyushib yashagan va o'z-o'zini boshqarish tamoyiliga amal qilingani holda, *mahalla oqsoqollari, ellikboshi, ponsad, yuzboshi* kabi lavozim egalari bo'lgan.

Mahallaning jamoatchilik tuzg'usi ham juda qadimiy hodisa. O'lkamizda odamlarni tabiat imkoniyatlaridan birgalashib foydalanish ehtiyoji ibtidoiy davrlardayoq ularni birlashtirgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Toshkent shahri bo'yicha 270 dan ortiq mahalla bo'lgan.

Toshkent shahrining Hasanboy, Yunusobod, Oq uy, Bektemir, Shofayziquloq, Cho'pon ota, Qa'ni, Do'mbirobo, Qozirobo, Qushbegi, Salor va boshqa mavzellarida qadimiy zamindorlarning ko'shk, saroy, qo'rg'onlari joylashgan. Hozir qadimiy Toshkent shahri atrofini o'rab turgan mazkur yodgorliklarning aksariyati arxeologik jihatdan o'rganilgan. Ular Toshkent shahrining asosiy iqtisodiy zamini bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, zamindor mulkchilik tizimi paydo bo'lgan ilk o'rta asrlarda ushbu feodal mulklari shaharning iqtisodiy ta'minotida

va o'z jangovar yigitlari bilan Choch o'lkasining poytaxti Chochni himoya qilishda alohida xizmat qilgan. Demak, shahar atroflaridagi mavzelar shahar bilan bir tan, bir jondek yashagan.

Xoja Ahror Valiy, Shayx Umar Bog'istoniy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy, Hofiz Ko'haniy kabi buyuk allomalar shu hududda yashab, ijod etganlar.

Shaharni Toshkent nomi bilan birinchilardan bo'lib **Abu Rayhon Beruniy** va **Mahmud Koshg'ariy** o'z asarlarida tilga olganlar. Abu Rayhon Beruniy o'zining „Hindiston“ asarida Toshkent nomining kelib chiqishi haqida so'z yuritar ekan, „*Toshkand – toshli qishloq*“ deb izoh beradi.

Arab manbalarida shahar Chochning poytaxti, „*Madinat ash-shosh*“ – Shosh shahri deb atalgan.

Shuningdek, mazkur shahar va uning nomlanishi, shahar nomining lug'aviy ma'nosi haqida **Zahiriddin Muhammad Boburning** „Boburnoma“ asarida, Mahmud Koshg'ariy asarlarida, shuningdek, XVI asrning oxiri va XVII asrlarda yashab ijod etgan olim Mahmud ibn Valiyning asarlarida ma'lumotlar bor. Vaqt o'tgan sayin Toshkent nomi shuhrat topa bordi va asrlar osha Choch, Shosh, Binkat deya nomlangan shaharning mazkur nomlari sekin-asta muomaladan chiqib keta boshladi.

Shahar hunarmandlari metallardan mehnat qurollari yasaganlar, ko'nychilik bilan shug'ullanganlar, zeb-u ziynatlar va ro'zg'or buyumlari yasaganlar va o'z mahsulotlari bilan ichki hamda tashqi savdoni ta'minlab turganlar.

Vizantiyadan tortib Xitoygacha bo'lgan hududda topilgan tangalar Toshkentning qadimiy va qizg'in savdo markazlaridan biri bo'lganligini isbotlaydi. Tarixiy manbalarga ko'ra shahar hokimi ham o'z tangalarini zarb qildirgan.

* * *

XVI asrda shahar yanada obodonlashgan. Hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari rivojlanib, Turkiston o'lkasining madaniy markazlaridan biriga aylangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda shahar yangi devor bilan o'ralib, me'morchilik obidalari bunyod etilgan. Bugungi kungacha yetib kelgan *Shayx Xovandi Tohur*

maqbarasi, *Ko'kaldosh* madrasasi, *Baroqxon* madrasasi kabi tarixiy obidalar shaharning ilm-u ma'rifat markazlari bo'lganligidan dalolat beradi.

Tarixdan ma'lumki, XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Qozon va Astraxon xonliklari Rus davlatiga bo'ysundirila boshlandi. Natijada, Toshkent va Moskva shaharlari o'rtasida savdo-sotiq aloqalariga imkoniyat tug'ildi, har ikkala tomondan bir-biriga elchilar yuborildi.

XVIII asrga kelib, shahar to'rt dahadan iborat edi. **Shayxontohur, Sebzor, Ko'kcha** va **Beshyog'och** dahalari. Har bir dahaning o'z hokimi bo'lgan. Shahar tarixida bu davr **Chorhokimlik** deb atalgan. Shaharni boshqarish bo'yicha barcha ma'muriy lavozimlarga shaharning boy savdogar va aslzodalari tomonidan ko'rsatilgan shaxslar tayinlangan.

* * *

Rossiya bilan savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida 1779-yilda Toshkentdan Tobolsk shahriga elchilik missiyasi jo'natiladi. Biroq, bu davrda shahardagi ichki ziddiyatlar va notinchliklardan foydalangan ko'chmanchilar shaharga bir necha marta hujum uyushtiradilar. Buning natijasida shahar atrofidagi bog'lar, dehqonchilik qilinadigan dalalar payhon qilinadi. Chorhokimlik davri shahar hayoti xo'jaligining tushkunlik davri bo'ldi. Shuning uchun, shaharni yagona hokim qo'lida birlashtirish ehtiyoji tug'ildi.

Bu davrda shahar yaxlit tashqi devor bilan o'ralgan va uning uzunligi 14 km bo'lib, 12 ta darvozasi bor edi.

1784-yil Shayxontohur dahasining hokimi **Yunusxo'ja** boshqa dahalarning hukmronligini ham o'z tasarrufiga oladi, natijada mustaqil Toshkent davlati yuzaga keladi. Bir qancha harbiy yurishlardan so'ng u o'z atrofidagi yerlarni qaytarib olishga va Toshkent aholisiga tinchlik bermayotgan ko'chmanchi qabilalarni bo'ysundirishga erishadi.

Bu davlat tashqi kuchlar tazyiqida bo'lsa-da, yigirma yildan ortiqroq vaqt davomida yashadi.

Toshkent mahallalarining *masjidi* va *choyxonalari* uning gavjumroq yerlarida joylashgan bo'lib, aholining turli ma'rakalari uchun zarur bo'lgan umumiy mulki sifatida saqlangan. Shaharning eng gavjum joylari, uning bozorlari bo'lgan.

Toshkentda jahon mamlakatlari, BMT va Markaziy Osiyo davlatlarining turli mavzulardagi seminar, simpozium va qurultoylari o'tkazib turiladi. 1998- yilda UNESCO tashkiloti Ijroiya Kengashining 155-sessiyasi, 1999- yil 19-20- iyulda Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha 6+2 guruhining BMT homiyligidagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda tarixiy Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. 2000- yil sentabrda UNESCO ning „Dinlararo dialog va dunyo madaniyati“ mavzusidagi xalqaro kongressi, 2003- yil 14- mayda „Interkontinental“ mehmonxonasida „Markaziy Osiyo XX asrda hamkorlik, sheriklik va muloqot“ mavzusida xalqaro konferensiya, 2004- yil iyun oyida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining konferensiyasi o'tkazildi.

Toshkentda mustaqillik yillarida iqtisodiyot va ma'naviyat sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Iqtisodiyot sohasida bozor munosabatlariga o'tilishi talablari asosida biznes, ishbilarmonlik, xorijiy sarmoyalar kiritishni rag'batlantirish, yangi bank-kredit sistemasini barpo etish, mulkni xususiylashtirishga doir bir qancha amaliy tadbirlar ko'rildi. Shaharda xorijiy mamlakatlar ishbilarmonlari bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar, firmalar ochish tobora rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, shahar qiyofasiga sharqona tus berilishiga katta ahamiyat berildi. 1991- yil 1-sentabrda Toshkentdagi Markaziy maydonni **Mustaqillik maydoni** deb atash haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. Ko'chalar, maydonlar, tashkilotlar, tumanlar qayta nomlana boshladi. Hozirgi kunda shahar markazidagi eng katta xiyobon **Amir Temur** nomi bilan ataladi. Uning markazida Sohibqiron **Amir Temur** haykali o'rnatilgan va Temuriylar tarixi davlat muzeyi qad ko'targan.

Bugungi kunda shaharni obodonlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Keyingi yillarda shaharning tabiiy muhitini buzadigan korxonalar shahardan tashqariga ko'chirildi. Shaharning Eski shahar qismida joyning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, uni kompleks rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shaharning tarixan tarkib topgan qismini tubdan ta'mirlash va obodonlashtirish yo'lida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent — kecha va bugun

Toshkent shahrining tarixi eramizdan avvalgi yillarga borib taqaladi. Tarixiy yozma manbalar va qadimgi Mingo'rik, Shoshtepa tepaliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Toshkent bundan 2200 yil oldin shahar sifatida shakllanganini tasdiqladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, VII—VIII asrlarda Shosh shahri va uning atrofida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq har tomonlama rivojlangan. X asr oxiri va XII asrning o'rtalaridan shahar Toshkent deb atala boshlangan. „Toshkent“ nomi dastlab XI asrda Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy asarlarida zikr etilgan. XIV—XV asrlarda Toshkent buyuk Sohibqiron Amir Temur davlati tasarrufiga o'tgan.

Toshkent shahri Tyanshan tog' tizmalari, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasida joylashgan bo'lib, eramizdan avvalgi 260-yillarda vujudga kelgan.

Toshkent shahri mustaqil O'zbekiston Respublikasining poytaxti sifatida Vatanimizning faxri va iftixori hisoblanadi. Qadim va hamisha navqiron Toshkent yurtimizning ko'rki, milliy istiqlolimizning timsoli, do'stlik shahri sifatida xalqaro maydonda alohida nufuzga ega. Toshkent shahriga Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, shuningdek, 90 dan ortiq xalqaro nodavlat tashkilotlar vakolatxonalari, 40 dan ortiq mamlakat elchixonalari joylashgan.

Toshkent o'zining yuksak intellektual va madaniy salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Mamlakatimizdagi markaziy muassasa va idoralar, eng nufuzli ilm-ziyo maskanlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, yetakchi oliy o'quv yurtlari, fan va madaniyat markazlari, teatr va muzeylar, kutubxonalar Toshkent shahrida joylashgan. Shahar iqtisodiyotida sanoat, xizmat ko'rsatish va servisni rivojlantirish, eksport va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun katta va qulay imkoniyatlar mavjud.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Toshkent shahri muhim o'rin egallaydi. U qudratli sanoat, ilmiy salohiyat va har

tomonlama rivojlangan infratuzilmaga ega. Toshkent shahrida yirik sanoat korxonalari mavjud.

2009-yil 1-sentabr kuni „O‘zbekiston“ xalqaro anjumanlar saroyida Toshkent shahrining **2200 yilligiga bag‘ishlangan** tantanali majlis bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi. Prezidentimiz tantana qatnashchilarini, butun xalqimizni Toshkent shahrining 2200 yillik bayrami bilan qutlar ekan, mustaqillik biz uchun o‘zligimizni anglash, huquqiy demokratik davlat, erkin va farovon hayot barpo etish uchun ulkan imkoniyatlar ochib berganini qayd etdi. Milliy davlatchiligimiz tarixida va ijtimoiy-siyosiy hayotimizda poytaxtimiz alohida o‘ringa va beqiyos ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning 2009-yil 20 - avgustdagi farmoniga binoan, yurtimizda milliy davlatchilikni ~~shakllantirish, mustaqil huquqiy demokratik davlat va fuqarolik~~ jamiyati barpo etish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, davlatlararo hamkorlik, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarini rivojlantirishga qo‘shgan katta hissasi, ezgu an‘analarni saqlash, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizni yuksaltirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan xizmatlari uchun hamda 2200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkent shahri „Mustaqillik“ ordeni bilan mukofotlandi.

„Toshkent – Islom madaniyati poytaxti“

Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti AYSESKO(ISESCO) tomonidan 2007-yilda „Toshkent – Islom madaniyati poytaxti“ deb e’lon qilindi.

Bu O‘zbekiston va o‘zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasining yuksak e’tirofi va mamlakatimiz hayotidagi ulkan madaniy-ma’rifiy voqeadir.

Butun Osiyo qit’asining vakili bo‘lgan Toshkent bilan bir qatorda arab dunyosidan Fes (Marokash) va Tripoli (Liviya) shaharlari, shuningdek, Afrika qit’asidan Senegal poytaxti – Dakar shaharlari ham Islom madaniyati poytaxtlari, deb e’lon qilindi.

AYSESKOning asosiy maqsad va vazifalari:

– Islom konferensiyasi tashkiloti aʼzolari boʻlgan mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga va ularning taʼlim, fan va madaniyat sohasida olib borayotgan faoliyatlarini yanada rivojlantirish;

– islom qadriyatlari va gʻoyalari doirasida fan taraqqiyoti va hozirgi zamon texnologiyalari natijalaridan unumli foydalanish;

– musulmon mamlakatlari xalqlari orasida oʻzaro hamkorlikni, taʼlim, fan va madaniyatni rivojlantirish yoʻli bilan tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash va boshqa shu kabi ezgu ishlarga yoʻnaltirilgan bir qancha muhim masalalar.

AYSESKO 1979- yili Islom konferensiyasi tashkiloti aʼzolari tashqi ishlar vazirlarining oʻninchi konferensiyasi qarori asosida tashkil qilingan.

**Tashkilotning shtab-kvartirasi
Rabotda (Marokash) joylashgan.**





SIYOSIY PARTIYALAR VA JAMOAT TASHKILOTLARI

O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari:

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi

— O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi O'zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri. 1991- yil 1-noyabrda tashkil etilgan. Partiyaning 218 viloyat, shahar va tuman kengashlari, 13065 boshlang'ich tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda.

„O'zbekiston ovozi“, „Голос Узбекистана“ gazetalari mazkur partiyaning ijtimoiy-siyosiy nashrlaridir.

O'zbekiston „Adolat“ sotsial-demokratik partiyasi

— O'zbekiston „Adolat“ sotsial-demokratik partiyasi — 1995-yil 18-fevralda partiyaning ta'sis qurultoyida tuzilgan. Ular 1200 ta aholi punktlarida 3120 ta boshlang'ich partiya tashkilotlarida birlashtirilgan. Partiyaning bosh maqsadi — mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarning jadallashuviga, huquqiy-demokratik, adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish va pirovardida, O'zbekistonning jahonda rivojlangan mamlakatlar safidan mustahkam o'rin olishdek ezgu ishga munosib hissa qo'shishdan iborat.

„Adolat“ gazetasi mazkur partiyaning ijtimoiy-siyosiy gazetasidir.

O'zbekiston „Milliy tiklanish“ demokratik partiyasi

O'zbekiston „Milliy tiklanish“ demokratik partiyasi — O'zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri.

„Vatan taraqqiyoti“ partiyasi O'zbekiston Respublikasidagi siyosiy partiyalardan biri sifatida 1992-yil 24-maydagi ta'sis

syezdida tashkil etilib, 2000-yil 14-aprelda „Vatan taraqqiyoti“ partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasi birlashdi hamda FMDP nomini oldi.

Toshkentda 2008-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasi va O‘zbekiston „Milliy tiklanish“ partiyasining **birlashuv** qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

Qurultoyda O‘zbekiston „Milliy tiklanish“ demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasini birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Markaziy kengash, Markaziy nazorat-taftish komissiyasi a‘zolari saylandi, birlashgan partiyaning bosma organi tasdiqlandi.

Partiya markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi etib Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitasi raisi Axtam Tursunov saylandi. („Fidokor“ gazetasi, 2008-yil 24-iyun.)

O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) O‘zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri. U 2003-yilda tashkil topgan.

Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilish, jamiyat hayotini yanada erkinlashtirishdan iborat. „XXI ASR“ gazetasi mazkur partiyaning ijtimoiy-siyosiy haftalik nashridir.

O‘zbekiston „Kamolot“ Yoshlar Ijtimoiy Harakati

O‘zbekiston „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakati ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, o‘zini o‘zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilotdir. Unga 14 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari a‘zo bo‘lishi mumkin.

2001-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov yoshlar masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda „Kamolot — yoshlarimizning haqiqiy suyanchi va tayanchi bo‘lsin“ mavzusida nutq so‘zladi. Ushbu ma‘ruza O‘zbekiston „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakatini tashkil qilish va tashkilotning maqsad-vazifalarini belgilashda muhim ahamiyat

kasb etdi. Shu uchrashuvdan so'ng tashabbuskor guruh tashkil etildi. Mazkur guruh o'z faoliyatini harakatning ta'sis qurultoyiga qadar davom ettirdi.

2001-yil 25-aprel kuni „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakatining dasturi va nizomi qabul qilindi. Harakat tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan, 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladigan „Kamalak“ bolalar tashkiloti tuzilgan.

2006-yil 10-oktabr kuni „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish haqida Prezident qarori qabul qilindi.

„O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi“ jamg'armasi

„O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi“ jamg'armasi 2004- yil fevral oyida tashkil topgan. Mazkur jamg'arma o'z oldiga fan, madaniyat va ta'limni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan. U o'z faoliyati davomida mamlakatimizning madaniy hayotida o'ziga xos voqea bo'lgan bir qator yirik loyiha va dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Yurtimiz yoshlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlamogda.

Ushbu jamg'arma turli ko'rgazmalar, teatr va kinofestivallari, xalqaro simpozium va anjumanlar tashkil etish orqali o'zbek madaniyati va san'atini jahonga tanitmoqda.

„Yangi avlod“ bolalar ijodiyoti festivali, „Navqiron O'zbekiston“ an'anaviy va zamonaviy san'at festivali, „Kelajak ovozi“ megatanlovi kabi tadbirlar ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodni ezgu maqsad yo'lida birlashtirib, ular orasidan turli yo'nalishlardagi iqtidor egalarini yuzaga chiqarmoqdalar. Jamg'armaning bir qancha chet el mamlakatlarida, jumladan, Yaponiya, Belgiya, Rossiya, Lyuksemburg kabi davlatlarda turli xalqaro loyihalarni amalga oshirishi mustaqil o'zbek davlatining dunyo uzra tobora tanilishiga sababchi bo'lmoqda.

Jamg'arma tomonidan Toshkentda „Kelajak ovozi“ yoshlar tashabbuslari markazi, Bolalar san'ati va ijodiyoti markazi tashkil etilgan. Jamg'arma Moskva, Pekin, Tokio kabi shaharlarda o'z vakolatxonasiga ega.

2005-yildan buyon jamg'armaning ta'lim grantlari dasturi amalga oshirib kelinadi. 2006-yilda ta'lim loyihalariga iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar dasturi va Pedagogik grantlar dasturi ham qo'shildi.

Xalqaro UNESCO tashkiloti jamg'arma bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan.

„Sog'lom avlod uchun“ jamg'armasi

„Sog'lom avlod uchun“ xalqaro xayriya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 23-apreldagi „Sog'lom avlod uchun“ xalqaro xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida“gi farmoni asosida tashkil qilingan. Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qitishni qo'llab-quvvatlash maqsadida „Ulug'bek“, „Umid“, „Kamolot“, „Iste'dod“ jamg'armalari tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasining „Nuroniy“ jamg'armasi

O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash „Nuroniy“ jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-dekabrda farmoni asosida tashkil qilingan.

1996- yil yanvarda Respublika „Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi“ huzurida „Oltin meros“ xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi.

„Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg'armasi

„Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg'armasi — Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi faoliyatiga ko'mak berish maqsadida tuzilgan jamg'arma. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-maydagi farmoyishi va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-iyulda qabul qilingan „Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida“gi qarori asosida tuzilgan.

Jamg'armaning vazirliklar, davlat qo'mitalari, konsernlar, kompaniyalar, korporatsiyalar, banklar va boshqa muassasalardan iborat homiylar guruhi tasdiqlangan. „Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg'armasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

— Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi ishini tashkil etish va komissiya zimmasiga yuklangan vazifalarning bajarilishiga yordam berish;

— qatag'on etilgan fidoyi vatandoshlarimizni nomma-nom aniqlash maqsadida jamoatchilik komissiyasi tomonidan mamlakatimiz hududlarida tuziladigan ilmiy ishchi guruhlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

— shahid bo'lgan yurtdoshlarimiz nomini abadiy saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ko'pjildlik asarlar yaratish, ilmiy-ma'rifiy muassasalar, mutaxassislar bilan aloqalar o'rnatish, hamkorlik qilish hamda vatandoshlarimiz hayoti, faoliyatiga oid chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish va ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish;

— qonunda belgilangan tartibda ishlab chiqarish hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish.

Qarorga ko'ra, „Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg'armasiga „Adolat“ va „Ma'naviyat“ nashriyotlarida „Istiqlol fidoyilari“ turkumida Mustamlakachilik davri qurbonlarining ijodiy va ilmiy merosi, ular haqidagi tadqiqotlar, Vatanimiz ozodligi yo'lida jon fido qilgan insonlarning ibratli hayotidan hikoya qiluvchi xotiralar, yodnomalar, shuningdek, adabiyotlar va ko'rgazmali vositalarni muntazam chop etishni yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Respublika prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Fanlar akademiyasi, Prezident Devoni arxivi va „O'zarxiv“ agentligiga Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi va ilmiy ishchi guruhlarining faoliyat olib borishi uchun tegishli sharoit yaratish vazifasi topshirilgan.

„Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg'armasi jamoatchilik komissiyasi bilan hamkorlikda o'tgan davr ichida o'nlab uchrashuvlar, xotira va yubiley kechalarini o'tkazdi. Ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etdi, ko'plab teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni uyushtirdi, maqolalar, risolalar, plakat, albom, taqvimlar va kitoblarni e'lon qildi. Ayni paytda, jamg'arma turli ijodiy tashkilot va uyushmalar bilan hamkorlikda kino, tasviriy san'at va musiqa asarlarini yaratishga harakat qilmoqda.

„EKOSAN“ jamg‘armasi

„EKOSAN“ jamg‘armasi Ekologiya va salomatlik xalqaro jamg‘armasining 1992-yil ta‘sischilar konferensiyasida tashkil qilingan bo‘lib, notijorat, nodavlat (nohukumat) tashkilot hisoblanadi.

Jamg‘arma 14 ta mintaqaviy va 200 ta tuman (shahar) bo‘limlariga ega. Jamg‘armaning korxonalar, tashkilotlar, o‘quv muassasalarida 2 500 000 dan ortiq faollari mavjud. Jamg‘armaning asosiy vazifalaridan biri — ekologik muammolarni har tomonlama o‘rganish, bu borada ilmiy konsepsiya ishlab chiqishga va barcha kuchlarni birlashtirishga ko‘maklashish, ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni tarbiyalashdir.

* * *

*10- iyun Zulfiya nomidagi
davlat mukofoti ta‘sis
etilgan kun.*

Qizlar, sizga imkoniyat bu...

1999- yilning 10- iyunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta‘sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida“ gi farmoni e‘lon qilindi.

Bu kun mamlakatimizning ilg‘or va iqtidorli, olg‘a intiluvchi qizlarining ijtimoiy hayotida katta hodisa bo‘ldi. Avol zotiga ehtirom va e‘zoz, ijodkorga va she‘riyatga bo‘lgan yuksak hurmat namunasi sifatida ta‘sis etilgan ushbu mukofot yurtimizning noyob iste‘dod egalari bo‘lgan qizlariga berib kelinmoqda.

Mukofot 5 ta yo‘nalish bo‘yicha iqtidorli qizlarga beriladi. 11 yil davomida mukofot sovrindorlarining soni 154 nafarga yetdi.

- Adabiyot yo‘nalishida — 31 nafar;
- Madaniyat yo‘nalishida — 31 nafar;
- San‘at yo‘nalishida — 30 nafar;
- Fan yo‘nalishida — 22 nafar;
- Ta‘lim yo‘nalishida — 40 nafar.

Zulfiya mukofoti sovrindorlarining:

— 60 nafari xalq ta‘limi va o‘rta maxsus ta‘limi tizimida ta‘lim olmoqda;

– 68 nafari oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olib, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol mehnat qilmoqda.

– 3 nafari Prezident stipendiyasi sovrindori;

– 3 nafari nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

– 11 nafari sportning turli turlari bo‘yicha O‘zbekiston va Osiyo, jahon chempionlaridir. Ular orasida Navoiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa stipendiyalar sovrindorlari ham mavjud. (O‘zR Xotin-qizlar qo‘mitasi ma‘lumotidan.)

Ushbu mukofot mustaqillik bergan nodir imkoniyat sifatida e‘tirof etilsa arziydi. Sababi, yoshlarga imtiyoz va imkon beruvchi bunday mukofot boshqa davlatlarda kuzatilmaydi. Bugun mukofot sohibasi bo‘lib oliy o‘quv yurtlariga imtiyozli tarzda qabul qilinayotgan qizlarning yuragidagi quvonch tuyg‘usi har bir o‘zbek qizining yuragiga yuksak orzularni, intilishlarni olib kiradi. Zulfiya mukofoti bugun mamlakatimiz qizlarining o‘lchoviga, ezgu g‘oyalarni amalga oshirish vositasiga aylandi. Mukofot sohibasi bo‘lishni orzu qilib, olis-olis qishloqlardan xat yo‘llayotgan dugonalarimiz, singillarimiz uchun mukofot ishtiyoqi yo‘lchi yulduz kabi ularning intilishlariga yo‘l ko‘rsatib bormoqda. Mukofot qizlarga ana shunday tuyg‘ularni, fidoyilik va faollik fazilatlarini bag‘ishladi, desak xato bo‘lmas.





MUSTAQILLIK NE'MATLARI

Vijdon erkinligi

O'zbekiston Respublikasining „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonuni

O'zbekiston Respublikasining „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonuni 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan.

1998-yilning may oyida esa ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Bu qonun 23 ta moddadan iborat. Qonunning 3-moddasi „Vijdon erkinligi huquqi“ deb nomlangan. Unda aytiladiki:

„Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishiga yoki e'tiqod qilmaslik, ibodat qilishda rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi“.

Bu o'z vaqtida belgilangan hayotiy qoidadir.

Din va dinlar

Din so'zi arabcha e'tiqod, ishonch so'zlaridan olingan bo'lib, ijtimoiy hayotni, hodisalar va voqelikni o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Dinlarning o'zaro munosabatlari hamkorlik, hamdo'stlik, tenghuquqlilik asosida amalga oshiriladi.

Jahon dinlari

Butun yer yuzi bo'ylab yoyilgan, e'tirof etilgan jahon dinlari quyidagilar:

- 1) xristianlik;
- 2) islom;

3) buddaviylik.

Mustaqillik tufayli o'zligimizni angalayotgan, ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi paytda ota-bobolarimiz dini, imoni, vijdoni bo'lib kelgan bizning mintaqaviy islom dinimiz o'ziga xos o'zbekona tusga ega, ya'ni o'zbekchilik bilan uyg'unlashib ketgan.

O'zbekistonda 16 ta noislomiy diniy konfessiya mavjud bo'lib, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'zaro tinch-totuv yashamoqdalar, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlikka erishishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar. (O'z. milliy ensiklopediyasi, 12- jild, 74- bet.)

Islom dini

Islom dini VII asrda Arabiston yarimorolida — hozirgi Saudiya Arabistonida paydo bo'lgan. Islom so'zi „itoat“, „ixlos“ va „omonlik“ ma'nolarini anglatadi. Islom dini ta'limoti uning muqaddas kitobi — Qur'oni Karimda bayon etilgan. Islomning quyidagi beshta farzi bor:

- 1) kalima keltirish;
- 2) namoz o'qish;
- 3) ro'za tutish;
- 4) zakot berish;
- 5) haj safariga borish.

Islom dinida ikki asosiy yo'nalish — sunniylik va shialik mazhablari mavjuddir.

Mazhab arabcha so'z bo'lib, „oqim“, „yo'l“, „ta'limot“ ma'nosini anglatadi.

Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,3 milliard musulmon aholining 92,5 foizini sunniylar tashkil etadi.

Sunniylik yo'nalishiga mansub bo'lgan hanafiy mazhabi dunyoda keng tarqalgan. Yer yuzidagi musulmonlarning deyarli yarmi mazkur mazhabdadir. Diyorimiz musulmonlari ham 14 asr mobaynida hanafiylik mazhabiga e'tiqod qilib kelmoqdalar.

Markaziy Osiyoda islom dini VII asr oxirlariga kelib shakllandi.

Muqaddas Qur'oni Karimdan so'ng ahamiyati jihatdan ikkinchi o'rinda turadigan **Imom al -Buxoriy**ning „Al-Jomi as-sahih“, **Az Zamaxshariy**ning arab tili grammatikasini to'liq o'z ichiga olgan „Al-Mufassal“, **Burhoniddin Marg'ioniy**ning

musulmon huquqshunosligi to'g'risidagi „Kitob al-hidoya“ asarlari bugungi kunda ham islom olamida bosh manba sifatida mashhurdir.

Istiqlolning dastlabki kunlaridayoq diyorimizning barcha fuqarolari haqiqiy e'tiqod erkinligini his eta boshladilar. Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z diniga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoit yaratilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat vakillari ham o'zlari e'tiqod qilayotgan dinlariga amin - erkin ibodat qilmoqdalar.

Toshkent Islom universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1999-yil 7-apreldagi farmoniga asosan tashkil etilgan. Har yili mazkur oliygoh Islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga 100 dan ortiq talabalarni qabul qiladi. Universitet qoshida islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi, manbalar xazinasi hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda.





DINIY-MA'RIFIY OBIDALAR

Ko'kaldosh madrasasi – XVI asrda qurilgan.

Shayx Zayniddin bobo maqbarasi – XIII–XIV asrlarda bunyod etilgan.

Xo'ja Alambardor maqbarasi – taxminan X asrda qurilgan.

Abulqosim shayx madrasasi – XIX asrda qurilgan.

Yunusxon maqbarasi – XV asrning oxirlarida qurilgan.

Shayx Xovandi Tohur maqbarasi – XV asrda qurilgan.

Qaldirg'ochbiy maqbarasi – XV asrning 1-yarmida qurilgan.

Hazrati Imom majmuasi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizning madaniy, ma'naviy-ma'rifiy merosi, buyuk allomalar maqbara va qadamjolarini ta'mirlash va obodonlashtirishga katta e'tibor berila boshlandi.

Toshkent shahrining qoq markazida joylashgan **Hazrati Imom** (Hastimom) majmuasidagi binolarning ta'mirlanishi va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. 2007- yilga kelib, yurtimizdagi boshqa muborak qadamjolar qatori Hazrati Imom majmuasi taqdirida ham ulkan o'zgarishlar davri boshlandi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2007- yil 20- fevralda „**Hazrati Imom jamoatchilik jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida**“ maxsus qaror qabul qilindi. Mazkur hujjatda Hazrati Imom majmuasining tariximiz, ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib, uning asl tarixiy qiyofasini tiklash, bu yerda keng ko'lamlı qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, majmuaning infratuzilmasini har tomonlama rivojlantirish bosh maqsad qilib belgilandi.

Majmuani obod qilishda uning tarkibidagi ko'hna yodgorliklarning barchasini asl holida qayta tiklash, yangi barpo etilgan

O'zbekiston musulmonlari idorasi, masjid, ikki ulkan minora, mahalla guzari va boshqa inshootlarni shu tarixiy binolarga har tomonlama uyg'un holda bunyod etishga alohida e'tibor qaratildi.

Majmua hududida yana to'rtta yangi bino: Hazrati Imom (Hastimom) jome masjidi, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Toshkent Islom instituti va „Istiqlol“ mahalla guzari sharqona me'moriy uslubda va zamonaviy shart-sharoitlarga xos holda barpo etildi.

Qaffol Shoshiy maqbarasi (XVI asr)

Shaharning Sebzor dahasidagi Hazrati Imom majmuasi haqli ravishda Toshkentning bosh yodgorlik majmualaridan hisoblanadi. Uning nomi shu yerdagi asosiy ziyoratgoh – Toshkentda tug'ilgan, musulmon olamining dastlabki imomlaridan bo'lgan **Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiy** maqbarasi nomidan olingan. Olim, Qur'oni Karim, fiqh va leksikologiya bilimdoni, shoir bo'lgan bu zot ko'plab tillarni bilgan hamda juda mashhur bo'lib ketgan „Al-Jadal al-Hasan“, „Javome' al-Kalim“, „Adab al-Qoziy“, „Ilm al-Jadal“, „Mahosin ash-Shori'a“ va boshqa asarlarni yaratgan.

Alloma hijriy 366 (976/977)- yilda vafot etgan hamda shahar devoridan tashqariga, Kaykovus kanalidan suv olib, obod bo'lgan hududga dafn etilgan. Keyinchalik uning qabri atrofida qabriston yuzaga kelgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, uning qabri ustiga qurilgan maqbara XIII asrda ham mavjud bo'lgan. XVI asrda uning poydevori ustiga yangi maqbara qurilgan. Maqbara eshigidagi yozuvda me'mor G'ulom Husayn hamda xattot kotib Quдрatlarning ismlari, shuningdek, qurilish sanasi – hijriy 948/1541- yil ko'rsatilgan. Maqbara hamda unga yondosh hazira asosiy ziyoratgoh hisoblangan va bu yerda keyinchalik paydo bo'lgan majmua nomi shundan olingan. Mutaxassislarning fikricha, bino so'fiylar markaziga xos ko'p xonali maqbara xonaqohlarning nodir turlaridan biriga mansub. Unda yuqorida aytilgan bitik Toshkent uchun nodir XVI asr mayolikasi saqlanib qolgan. Yodgorlik ulkan tarixiy qimmatga ega.

Maqbara ichida sag'ana mavjud. Ehtimol, bu Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiy qabri ustiga o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Maqbara ichida yana to'rtta sag'ana bor. Tashqarida, bosh peshtoqning ikki tomonida yana ikkita sag'ana mavjud.

Kiraverishga ikki tavaqali naqshinkor eshik o'rnatilgan. Eshikning yuqori qismida o'qib bo'lmas darajaga kelib qolgan yozuv mavjud.

Baroqxon madrasasi (XVI asr)

XVI asr o'rtalarida ushbu majmuaning asosini, mazkur maqbaradan tashqari, **Baroqxon** (Navro'z Ahmadxon) madrasasi tashkil etgan. Madrasa biroz avval qurilgan ikkita maqbara (nomsiz va Suyunchxo'jaxon maqbarasini) o'z ichiga olgan. Baroqxon o'zi qurdirgan madrasa ulug'vor inshoot bo'lishini niyat qilgandi. Shuning uchun bosh peshtoq darvozasi va hujra eshiklari o'ymakori naqsh bilan bezatilgan. Qimmatbaho toshlar, fil suyagi hamda rangli metallar bilan murassa' qilingan. Madrasa gumbazi Samarqand me'moriy yodgorliklari singari, moviy naqshinkor rasmlar bilan bezatilgan. Shuning uchun madrasa binosi xalq orasida va adabiyotlarda „Ko'k gumbaz“ deb yuritiladi. 1868- yilda Toshkentda yuz bergan kuchli zilzila natijasida madrasa binosi qattiq shikastlandi. Ikkinchi qavat xonalari, ayniqsa, qattiq ziyon ko'rdi. Ko'k gumbaz to'kilib tushdi. Keyinchalik madrasa binosi tiklandi. Lekin ikkinchi qavat tiklanadigan darajada bo'lmagani uchun olib tashlandi. 1956- yilda Baroqxon madrasasi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi ixtiyoriga berildi.

MUZEYLAR

Toshkentda 24 ta muzey, 15 ta kinoteatr, 11 ta madaniyat va istirohat bogi, 166 ta jamoat kutubxonasi (ularda 13,8 mln nusxadan ziyod kitob bor), 9 ta madaniyat saroyi, 65 dan ortiq madaniyat uylari bor.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Temuriylar tarixi davlat muzeyi Amir Temur xiyoboni yaqinida 1996- yilda bunyod etilgan. Muzey binosi o'rta asr me'morchiligi an'analari asosida qurilgan. Bino uch qavatli bo'lib, uning balandligi 31 metr. Tashqi tomonidan aylanasi uzunligi 70 metrni, ichki tomondan 50 metrni tashkil qiladi.

Binoning birinchi qavatida ko'rgazma va kinoleksiya zali mavjud.

Ikkinchi qavatdagi ko'rgazma zali 8 bo'limdan iborat. Ko'rgazma zalidagi temuriylar tarixiga oid noyob eksponatlar O'zbekiston viloyatlaridagi yirik muzeylardan keltirilgan. Ular orasida 1996- yilda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ko'rgazmadagi eksponatlar ham muzeyga o'tkazilgan. Muzeyda turli yodgorliklar, qo'lyozmalar, tasviriy san'at namunalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Amir Temur shaxsiga bo'lgan hurmatini ifodalovchi dil so'zlari va „Temur tuzuklari“dan keltirilgan iboralar eksponatlarni mazmunan boyitgan.

Ko'rgazma zalining markazidagi devoriy tasvirdan „Buyuk Sohibqiron — buyuk bunyodkor“ nomli 3 qismdan iborat asar o'rin olgan. *Birinchi* — „**Tug'ilish**“ qismi — Sohibqironning tug'ilishi bilan bog'liq urf-odatlar ramziy tasvirlarda ifodalangan.

Ikkinchi — „**Yuksalish**“ qismida „Rosti-rusti“ („To'g'rilik — najotdir“) degan shior oltin harflar bilan bitilgan. Bu qismning markazida taxtda o'tirgan Sohibqironning o'z a'yonlari davrasidagi mashvaratlari aks ettirilgan. Pastroqda esa Sohibqironning nabira va abiralari (Muhammad Sulton, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur) bobolaridan meros qolgan tuzuklarni mutolaa qilayotganlari va Amir Temur yaratgan me'moriy obidalar tasvirlangan.

Uchinchi qism — „**Faxrlanish**“. Bu bo'limda merosning avlodidan avlodga o'tib kelayotganlik g'oyasi o'z aksini topgan.

Muzeyga har yili 100 mingdan ziyod tomoshabin kiradi.

O'zbekiston davlat San'at muzeyi

O'zbekiston davlat San'at muzeyi O'rta Osiyoda ilk bor tashkil etilgan badiiy muzey bo'lib, u madaniy-ma'rifiy, ilmiy muassasadir. Mazkur muzeyga 1918- yilda Toshkent shahrida Xalq universiteti muzeyi sifatida asos solingan, keyinchalik Markaziy badiiy muzey, 1924- yildan Toshkent san'at muzeyi, 1935- yildan boshlab San'at muzeyi sifatida faoliyat olib boradi. Muzey Toshkentda yashagan knaz N. K. Romanovning shaxsiy to'plami negizida vujudga kelgan bo'lib, Turkiston o'lkashunoslik muzeyining badiiy bo'limidan va boshqa muzeylarning fond-



„O‘zbekiston“ xalqaro anjumanlar saroyi.

laridan, shaxsiy to‘plamlardan san‘at asarlari keltirilib boyitilgan. Muzey fondi 50 mingdan ortiq eksponatga ega (2005-y.) bo‘lib, tomoshabinlar soni yiliga 250 mingdan oshadi.

Muzeyda O‘zbekiston xalq amaliy san‘ati, O‘zbekiston tasviriy san‘ati, G‘arbiy Yevropa san‘ati, Xorijiy Sharq xalqlari san‘ati bo‘limlari, xazina, ta‘mirlash ustaxonasi, fotolaboratoriya mavjud. Muзей ilmiy muassasa sifatida O‘zbekiston tasviriy san‘ati bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. Shuningdek, o‘z xazinasidagi san‘at asarlari asosida ko‘rgazmalar tashkil etadi, chet mamlakatlar ko‘rgazmalarida ishtirok etadi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida xorijiy mamlakatlar bilan ijodiy aloqalar kengaydi. Muзей Xalqaro muzeylar qo‘mitasi a‘zosi.

O‘zbekiston Respublikasi Amaliy san‘ati muzeyi

Mazkur muzey 1937- yilda ochilgan bo‘lib, hunarmandchilik ko‘rgazmasi asosida amaliy san‘at muzeyi sifatida tashkil qilingan. 1960–97- yillarda „O‘zbekiston amaliy san‘at asarlari doimiy ko‘rgazmasi“ deb atalgan.

Ushbu muzeyda XIX asrning birinchi yarmidan boshlab bugungi kunga qadar bo‘lgan davrda yaratilgan amaliy san‘at asarlari to‘plangan.

Muzeyda qadimiy an‘analar bo‘yicha yaratilgan san‘at asarlari, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq ustalarining

an'anaviy tarzda yaratgan va ijodiy boyitilgan san'at asarlari, shuningdek, bugungi kun amaliy san'at taraqqiyotidan kelib chiqib, zamonaviy san'at talablari darajasida yaratilgan yetuk san'at asarlarini uchratish mumkin. Ular kulolchilik, chinni-sozlik, shishasozlik, kashtado'zlik, do'ppi, matoga gul bosish, badiiy mato, milliy kiyim, gilamchilik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, miniatura, zargarlik, pichoqchilik va boshqa turdagi amaliy san'at namunalaridir.

Muzeyda amaliy san'at bo'yicha ilmiy tekshirish ishlari ham olib boriladi. U yerda buyumlarni sotib olish, ilmiy yoritish, ekspozitsiyalarda namoyish etish, buklet, kataloglar nashr etish, ko'rgazma ekskursiyalar, ilmiy anjumanlar uyushtirish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Muzeyning binosi ham xalq me'morchilik va bezak san'atining nodir namunasi bo'lib, uni qurish va bezashda, asosan, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva kabi shaharlarning ustalari qatnashganlar.

1970- yilda muzey uchun qo'shimcha bino qurilgan bo'lib, hozirgi kunda markaziy xona devorlari rassom Chingiz Ahmarovning amaliy san'at muzeyidagi miniatura asarlari bilan bezatilgan.

Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi

Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi Toshkent shahridagi eng yirik adabiy-ma'rifiy muassasalardan biridir. Mazkur muzey 1940-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan Respublika ko'rgazmasi sifatida tashkil topgan. Muzey 1991-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar akademiyasining Adabiyot muzeyi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Muzeydagi ekspozitsiyalar mavjud 40 xonaga joylashgan bo'lib, ular 8 bo'limdan iborat. Undagi barcha ko'rgazmalar soni qariyb 34 ming nafarni tashkil etadi. Muzeyda o'zbek adabiyotiga oid asarlar, qo'lyozma va toshbosma kitoblar, xalq hofizlarining ovoz yozuvlari, naqqoshlik san'atiga doir ko'rgazmalar hamda XX asrga oid sopol buyumlar mavjud. Muzeydagi ko'rgazmalar temuriylar davri ekspozitsiyasi bilan, o'zbek adabiyoti tarixi ekspozitsiyalari esa Alisher Navoiy ijodi bilan boshlangan.

Muzeyda „Xamsa“ning qo‘lyozma, foto va ko‘chirilgan nusxalari, dostonlarga ishlangan miniaturalar, rasm va bezaklar, shoir hayotiga oid portretlar, haykallar, xarita, kitob, har xil sovg‘a va albomlar, lagan, ko‘zachalar bor. Muzeyda buxorolik qizlar tomonidan Navoiy va uning „Xamsa“ asariga bag‘ishlangan Farhod va Shirin, Layli va Majnun siymosi aks ettirilgan, zar bilan tikilgan gilam alohida o‘rin tutadi. Jomiy ijodiga bag‘ishlangan xonada shoir asarlarining turli davrlarda ko‘chirilgan nusxalari qo‘yilgan. Shuningdek, muzeyning boshqa xonalaridagi ko‘rgazmalari orasida Hofiz, Nizomiy, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviylarning bir qancha qo‘lyozmalari bor. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar orasida „Bobur haykali“ va ipak bilan tikilgan „Bobur portreti“ ko‘rgazmaga alohida mazmun baxsh etadi. Shuningdek, muzeyda Zebunniso, Turdi, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna va boshqa mumtoz adabiyot vakillari hayotiga va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar va asarlariga ishlangan tasvirlar bor. Muzeyning hozirgi zamon adabiyotiga bag‘ishlangan xonalariga „XX asr o‘zbek adabiyoti“, „Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti“ ekspozitsiyalari joylashtirilgan. Unga 200 dan ortiq o‘zbek shoir va yozuvchilarining ijodiy yo‘lini yorituvchi ko‘rgazmalar qo‘yilgan.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O‘zbekistonda olimpiada harakati va sport yutuqlarini targ‘ib qiluvchi markaz bo‘lib, u 1996- yil 1- sentabrda ochilgan. Mazkur muzey Osiyo qit‘asida birinchi tashkil qilingan olimpiya muzeyidir. Uning ochilishida Xalqaro Olimpiada qo‘mitasining Prezidenti X. A. Samaranch ishtirok etgan.

Muzeyning vazifasi olimpiya g‘oyalarini targ‘ib qilish bilan birga, respublikada jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o‘yinlarini yuksaltirish, O‘zbekiston sportchilarining jahon miqyosidagi nufuzini oshirishdan iboratdir.

Muzeyda 11 mingdan ziyod eksponatlar mavjud.

Ular AQSH, Ispaniya, Shveysariya va boshqa xorijiy davlatlardan olib kelingan. Muzeyning birinchi qavatida noyob eksponatlar joylashtirilgan. Ular orasida O‘zbekiston Res-

publikasi Prezidenti Islom Karimovga XOQ Prezidenti tomonidan topshirilgan Olimpiada oltin ordeni hamda Osiyo Olimpiada Kengashining Olimpiada oltin ordenlari bor. Shuningdek, bu yerda Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining „Oltin marjon“i, professional boks bo'yicha 16 karra jahon chempioni Artur Grigoryanning chempionlik oltin kamari, gulchambar va medallari, Olimpiada o'yinlari vaqtida tayyorlangan turli medallar va nishonlar bor. Muzeyning ikkinchi qavatida Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan yillarning xronologik tarzdagi jadvali berilgan bo'lib, ularda ishtirok etgan o'zbekistonlik sportchilarning kiyimlari, asbob-anjomlari, suratlari, mukofotlari bilan tanishish mumkin.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida sportchilarimizning jahon, Yevropa birinchiliklari, Osiyo, Markaziy Osiyo o'yinlari, Toshkent va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilayotgan turli xalqaro turnirlarda erishgan yutuqlari, qo'lga kiritgan sovrinlari muzey eksponatlarining asosini tashkil etadi. Amaldagi ekspozitsiyalar muntazam yangi eksponatlar bilan to'ldirib turiladi. Muzey videokassetasi tasmalariga eng qiziqarli musobaqalar tasviri yozilgan.

Mazkur muzeyda muhim sport tadbirlari o'tkazilib turiladi.

O'zbekiston geologiya muzeyi

O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufidagi muzey bo'lib, 1988- yilda ochilgan. Muzey kolleksiyalari O'zbekistonda geologiya faoliyatining 75 yil mobaynida yig'ilgan katta hajmdagi materiallar hamda muzeyga sovg'a sifatida taniqli geologlar tomonidan taqdim etilgan shaxsiy kolleksiyalar, O'zbekiston Respublikasi tabiatini aks ettiruvchi suratlar bilan boyitilgan.

Muzeyda geologiya fanining rivojlanishi, birinchi o'zbek geologlari, dastlabki konlarni ochgan geologlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Muzeyda namoyish etilayotgan eksponatlarning umumiy soni 32 mingdan ortiq. Noyob geologik topilmalarning namunalari ham namoyish qilinadi. Shuningdek, ular orasida maxsus petrografik kolleksiya mavjud bo'lib, u o'z ichiga 300 ta namunani qamrab olgan. Mineralogik kolleksiya esa 858 ta noyob namunadan, monografik paleontologik kolleksiya 2631 ta

namunadan iborat. Ulardan 783 tasi Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududining rivojlanishi tarixi zalida joylashgan.

Mazkur muzey qoshida turli ko'rgazmalar, taqdimotlar va geologiya tadqiqotlarni izlab topish va o'zlashtirishga oid uchrashuvlar o'tkaziladi.

BOG'LAR VA XIYOBONLAR

Amir Temur xiyoboni

Toshkent markazida joylashgan ushbu xiyobon hududida 1875- yilda qurilgan bank binosi, 1878–79- yillarda bunyod etilgan o'g'il bolalar va qizlar gimnaziyalari o'quv binolari, hozirgi Toshkent yuridik instituti binosi, 1881- yilda qurilishi nihoyasiga yetkazilgan Turkiston o'qituvchilari seminariyasi binosi joylashgan.

1993- yil 31- avgust kuni ushbu xiyobon markazida yirik davlat arbobi va buyuk sarkarda **Amir Temur** sharafiga o'rnatilgan haykalning tantanali ochilish marosimi bo'ldi va ushbu xiyobon uning nomi bilan ataldi.

„Mustaqillik“ maydoni

1991-yil 31-avgustdan e'tiboran Vatanimiz tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O'zbekiston xalqi o'z taqdirini o'z qo'liga oldi, siyosiy, ma'naviy mutelikdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli, suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

Mustaqillik maydoni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov g'oyasi bilan bunyod etilgan me'moriy-badiiy majmuadir. O'zbekiston istiqbolining dastlabki yillarida maydonda o'rnatilgan obida „Mustaqillik“ monumenti deb atalgan. Ramziy ravishdagi Yer sharida O'zbekiston Respublikasining xaritasi aks etgan, ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O'zbekiston davlati mustahkam o'rin olganligining ramziy ifodasidir.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i—aholi madaniy dam oladigan ko'kalmaz maskandir. Bu bog'da bayramlar va sayillar o'tkazib turiladi. Ayniqsa, **Mustaqillik** va **Navro'z** bayramlarida bog' maydoni gavjum bo'ladi. Bayramda ommaviy tadbirlar, bayram sayillari uyushtiriladi.

Bu bog' 1938-yili bunyod etilgan. 1991-yili bog' maydoni kengaytirilib, qayta qurilgan. *Alisher Navoiy taval-ludining 550 yilligi* munosabati bilan bog'ga uning nomi berilgan. Bog'da milliy me'morchilikka xos uslubda doira shaklida Ko'shk qurilgan. Ko'shk o'rtasida Navoiy haykali o'rnatilgan. Yodgorlik oldidagi lavhaga Navoiyning quyidagi mashhur bayti yozib qo'yilgan:

Olam ahli bilingiz, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.

Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'i

Toshkent markazining janubida, Yakkasaroy tumani hududida joylashgan. Maydoni 17,8 gektar. 1932- yilda to'qimachilik kombinati xodimlari tashabbusi bilan qurilgan. 1992- yildan Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ataladi. Bog'ning maydoni 1997- yilda qayta ta'mirlanib, kengaytirildi.

Bog'da zamon talablariga javob beradigan sport klubi majmuyi, uchta tennis korti, futbol maydoni, raqs maydonchasi, yozgi sahna va suv usti sahnasi, 18 ta o'yin attraksionlari, kutubxona mavjud.

Bog'da turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, kasb bayramlari, „Mustaqillik bayrami“, „Navro'z bayrami“, „Xotira va qadrlash kuni“ tadbirlari o'tkazib kelinadi.

Xotira va Qadrlash maydoni

Xotira va qadrlash maydoni 1999- yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va rahbarligida barpo etilgan me'moriy majmuadir.

U Mustaqillik maydoni xiyobonidagi mangu alanga yodgorligi atrofida joylashgan. Maydonning to'rida „Motamsaro ona“ haykali joylashgan. Uning bir tomonida ayvonlar qad ko'targan bo'lib, uning tokchalariga o'rnatilgan metall taxtalarga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik barcha jangchilarning ism-sharifi yozilgan. Ayvonlar milliy an'anaviy me'morlik uslubida qurilgan bo'lib, majmuani bunyod etishda o'ymakorlik bilan jozibador bezak ishlari amalga oshirilgan.

Botanika bog'i

ToshDU (hozirgi O'zMU) qoshidagi botanika bog'i asosida tashkil topgan. 1968- yil 1- yanvardan bog' ilmiy tekshirish instituti maqomini oldi.

Botanika bog'i respublika miqyosida o'simliklarni introduksiya qilish (ilgari o'stirilmagan yangi o'simliklarni o'stirish, iqlimlashtirish va ulardan xo'jalikda foydalanish) masalasini o'rganish va ishlab chiqish ilmiy markazi hisoblanadi. Bog'ning 64 gektar maydoni bo'lib, undagi noyob o'simliklar soni 2008- yilda 6 mingdan oshdi.

Angliyada e'lon qilingan „Dunyodagi eng yirik botanika bog'lari“ nomli asarda O'zbekiston botanika bog'i ham tilga olingan.

Hayvonot bog'i

Toshkent hayvonot bog'i 1924- yilda 3 gektar maydonda O'ra Osiyo universiteti olimlari tashabbusi bilan chor Rossiyasi general-gubernatorining dala hovlisidagi kichik hayvonot burchagi negizida tashkil etilgan.

XX asr 40-yillarining oxirida 200 turdan ortiq hayvonlar jamlangan hayvonot bog'iga aylandi. O'zbekiston Respublikasi hukumati qaroriga ko'ra 1994–1997- yillarda barcha zamonaviy talablarga javob beradigan hayvonot bog'i qurildi. Botanika bog'i

yaqinida joylashgan mazkur bog'ga 1997- yil sentabrda Toshkent hayvonot bog'i ko'chib o'tdi. Bog'ning umumiy maydoni 22,7 gektar. Bog'da 415 turdagi 5000 ga yaqin jonivor bor.

MONUMENT VA HAYKALLAR

„Mustaqillik va ezgulik“ monumenti



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 3-fevraldagi qaroriga ko'ra „Mustaqillik“ obidasi va „Baxtiyor ona“ haykali „Mustaqillik va ezgulik“ monumenti deb nomlandi.

Vatanimiz poytaxti — Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoni xalqimiz ozodligining, ajdodlarimiz asrlar davomida orziqib kutgan, bugungi avlodlarga nasib etgan eng ulug', eng aziz ne'mat bo'lmish istiqlolimizning muqaddas ramzidir.

Keyingi yillarda Mustaqillik maydoni va unga tutash hududda keng ko'lamdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasi binosi tubdan qayta ta'mirlandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining binosi, Ezgulik arkasi, O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi kabi muhtasham me'moriy inshootlar, yashil maydon va xiyobonlar barpo etildi. Yaqinda esa, yangi Ma'muriy bino, Biznes markazi qurilib bitkazildi.

Bunday katta bunyodkorlik ishlari tufayli bugungi kunda Respublikamiz poytaxti va barcha viloyatlar, shaharlar tamomila yangicha qiyofa kasb etdi.

Mustaqillik maydoni va unda qad rostlagan „Mustaqillik va ezgulik“ monumenti xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga istiqlol g'oyalarini, milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada chuqurroq singdirishda katta ahamiyatga ega.

Bugun o'zining to'la mustaqilligi va ozodligiga erishgan ona yurtimiz osmonida har doim ezgulik va yaxshilik elchilari xotirjam parvoz etib turishining ramziy timsoli sifatida qad rostlagan Ezgulik arkasi asrlar davomida uning bunyodkorlari, g'oya

mualliflarining cheksiz samimiyatga yo'g'rilgan va erkka mushtarak qalblari iforini avlodlar qalbiga quyosh nurlari misol singdirajak, albatta.

„Shahidlar xotirasi“ yodgorlik majmuyi

„Shahidlar xotirasi“ yodgorlik majmuyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2000-yil 12-may kuni bunyod etilgan.

Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv sohilida joylashgan ushbu yodgorlik majmuyini bunyod etish g'oyasi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-may sanasidagi farmoyishiga ilova etilgan „Qatag'on qurbonlari“ muzeyini yaratish to'g'risida“gi ma'lumotnomada ko'rsatilgan. „Ezgu va xayrli ishlarimizning mantiqiy davomi



sifatida begunoh qurbon bo'lgan, surgun va qamoqlarda behad jabr-zulm ko'rgan, yot ellarga bosh olib chiqib ketishga majbur etilgan ming-minglab vatandoshlarimizning nomlarini xotirlash va qadrlash uchun poytaxtimiz Toshkent shahrida „Qatag'on qurbonlari“ yodgorligini o'rnatish maqsadga muvofiqdir,“— deyiladi mazkur hujjatda.

Uni qurish uchun Bo'zsuv kanalining Toshkent telemiyorasiga yaqin sohili tanlangan, chunki 20-yillar oxiridan 40-yillarning boshiga qadar bu joyda uchta qatlgoh bo'lgan va ularda minglab vatandoshlarimiz o'ldirilib, ko'mib tashlangan.

Bu yodgorlikning sobiq qatlgohlardan birida qurilishi o'zbek xalqiga qarshi ongli ravishda va rejali asosda olib borilgan qirg'in va qatag'onlar Sho'ro tuzumining asl mohiyatini fosh etadi. Xalqimizda mustaqillik va uning qadriyatlariga sadoqat uyg'otadi, ma'naviyat va milliy mafkuraning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

17 gektarlik maydonni o'z ichiga olgan „Shahidlar xotirasi“ yodgorlik majmuyida baland ustunlarga tayangan moviy gum-bazlar qurilgan bo'lib, u yerda qatag'on qurbonlarining ramziy

qabri joylashgan. Bog'ning o'rtasini Bo'zsuv kesib o'tadi. Majmua markazida tik ustunlarga o'rnatilgan gumbazli ayvon (rotonda) metall qurilmalardan ishlanib, G'ozg'on marmari bilan qoplangan.

Yodgorlik majmuyining „yuragi“ ramziy sag'ana bo'lib, u o'zida sobiq sho'rolar davlatining barcha qatlgohlarida otilgan va zindonlarida qolib ketgan ajdodlarimiz yodini mujassamlashtiradi.

„Vatanga qasamyod“ haykali

2010-yil 12-yanvarda Toshkent shahrida mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan „**Vatanga qasamyod**“ haykali ochildi. U Qurolli Kuchlar muzeyi oldidagi „**Jasorat**“ bog'ida barpo etilgan. Uning balandligi 12 metr bo'lib, unda egilgan holda Vatanga sodiqligi haqida qasamyod qilayotgan askar siymosi aks etgan.

„Vatanga qasamyod“ haykali tarixiy, ma'naviy, siyosiy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari sharafiga bunyod etilgan.

U avlodlarga mardlik va matonat ruhini bag'ishlaydi. Ular uchun ma'naviy ibrat vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur haykal chuqur ichki ma'noga ega. Undagi obraz o'z xalqining vatanga sodiq, ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk va mard farzandi timsolidir. Unda ona xalqimizning munosib o'g'loni davlatimizning betakror timsoli bo'lmish bayrog'imizni ko'ziga to'tiyo qilib, Vatan himoyasi uchun, ota-bobolarimiz xoki yotgan qutlug' zaminning har qarich tuprog'ini asrash uchun tayyorman, deb tiz cho'kib qasamyod qilmoqda. Ana shu mard va jasur farzandga oq sut bergan, bag'rida ko'tarib voyaga yetkazgan, Vatan timsoli bo'lgan munis va mo'tabar ona o'z qo'rg'oni oldida turib, harbiy xizmatga otlangan jondan aziz bolasiga oq fотиha berib, unga oq yo'l tilamoqda.

Mazkur betakror majmua Vatanga sadoqat, mardlik va jasorat madhiyasi hamda el-yurt himoyachisi bo'lgan fidoyi insonlarga bo'lgan hurmat va ehtirom ramzidir.

„Ko'hna va boqiy Buxoro“ monumenti

2010-yil 30-avgustda Buxoroda „**Ko'hna va boqiy Buxoro**“ monumenti ochildi. Mazkur toshdan yasalgan kompozitsiya uch

avlodni o'zida aks ettirib, bu bilan hayotning manguiligini anglatadi. Birinchi guruh — ota-ona va farzanddan iborat baxtli oila. Ikkinchi qismida — keksa buva va nabira daraxt ekishmoqda. Keyingi qismda — ota-bola uy qurishyapti. Bunday falsafada hayotning abadiyligi, odamlardagi mehr va muruvvat, yaxshilikning bardavomligi ifodalangan.

TEATR VA TOMOSHAGOHAR

Toshkent shahrida bir qancha teatrlar faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, O'zbek milliy akademik drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatri, O'zbek davlat drama teatri, Respublika Yosh tomoshabinlar teatri, A. Qahhor nomidagi Respublika satira teatri, Toshkent davlat rus drama teatri, O'zbekiston Yoshlari teatri, Respublika Qo'g'irchoq teatri, „Ilhom“ teatr-studiyasi va boshqalar.

Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri

Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri san'at sohasidagi asosiy maskanlardan biridir. Mazkur teatrning vujudga kelishi o'zbek davlat konsert-etnografik ansambli bilan bog'liq.

Teatr bir qancha xorijiy mamlakatlarda gastrollarda bo'lgan va o'z navbatida, chet ellik yetakchi san'at ustalari — yakkaxon xonandalar, balet ustalari va dirijorlar o'z san'atlarini mazkur teatr sahnasida namoyish qilib kelmoqdalar.

Mustaqillik yillarida teatr rivojini yuksaltirish, milliy opera va balet spektakllarini yaratishga e'tibor kuchaytirildi.

1991–2003-yillar davomida „Malikayi ayyor“, „Umar Xayyom“, „Ahmad al-Farg'oniy“, „Taxtga yo'l“, „Amir Temur“, „Buyuk Temur“ operalari, „Shoirona miniaturalar“, „Nasriddinning qilmishlari“, „Ming bir kecha“ kabi baletlar sahnalashtirildi. Teatr repertuaridan o'nlab klassik opera va balet asarlari ham o'rin olgan.

Teatrning tomosha zali 760 tomoshabinga mo'ljallangan.

Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatri

Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatri O'zbekistondagi eng yirik madaniyat maskanlaridan biridir.

Mazkur teatr 1939- yil 30- noyabrda Respublika komediya va satira teatri sifatida tashkil etilgan.

1940- yilda teatr musiqali drama va komediya teatri nomi bilan qayta tashkil qilingan.

Teatrning birinchi katta ishi „Tohir va Zuhra“ musiqali dramasi.

1972- yilda teatr O'zbek davlat musiqali teatriga aylantirildi.

Teatrning tomosha zali 800 tomoshabinga mo'ljallangan bo'lib, teatr mustaqillik yillarida ilk bor ta'mirlandi.

Mustaqillik yillarida teatrdagi „Bir kam dunyo“, „To'ylar muborak“, „Toshkentga sayohat“, „Nodirabegim“, „Har kimki vafo qilsa“, „Fotima va Zuhra“, „Oqibat“, „Devona“ kabi spektakllar sahnalashtirildi. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi spektakllarda milliy madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo'shgan yirik tarixiy shaxslar obrazlarining gavdalantirilishi teatrning eng katta yutuqlaridan biridir.

O'zbek Milliy akademik drama teatri

1913- yilda Toshkentda tashkil topib, Behbudiyning „Padarkush“ asari bilan ochilgan.

1918–1921- yillar Uyg'ur, G'ulom Zafariy boshchiligida Abror Hidoyatov, Abdurahmon Akbarov, Mahsuma Qoriyeva, Yatim Bobojonov, Obid Jalilov, Sayfi Olimov, Olim Xo'jayev, Shukur Burhonov, S. Eshonto'rayeva kabi bir qator aktorlar ilk faoliyatlarini boshlaganlar...

1960–1990- yillarda teatr jamoasida avlod almashinuvi jadalashdi. T. Azizov, P. Saidqosimov, S. Norboyeva, T. Oripov, T. Karimov, Y. Ahmedov, T. Tojiyev, E. Komilov kabi aktorlar teatrning faol ijodkorlariga aylandilar.

Teatr binosi 2001- yilda zamonaviy talablarga javob beradigan qilib qayta ta'mirlandi. Katta tomosha zali 540 tomoshabinga mo'ljallangan.

Mustaqillik yillarida milliy teatrdagi: „Sohibqiron Temur“,

„Kunduzsiz kechalar“, „Hamlet“, „Qirol Lir“, „Chimildiq“, „Qalliq o‘yin“ kabi bir qator spektakllar sahnalashtirildi.

O‘zbekiston Yoshlari teatri

Tashkil etilgan sana: Teatr 1928- yil 30- aprelda tashkil topgan. 1929- yili teatrdagi o‘zbek truppassi ham tashkil etiladi va shu yili teatrga Davlat teatri maqomi beriladi.

1967- yil 13- mayda o‘zbek va rus truppalari ajralib chiqib, mazkur teatr Toshkent davlat rus yosh tomoshabinlar teatri sifatida faoliyat yurita boshlaydi.

Toshkent davlat rus yosh tomoshabinlar teatri O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 1998- yil 28- maydagi 127-sonli buyrug‘i bilan „O‘zbekiston Yoshlari teatri“ deb nomlandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan 1991- yili yosh iqtidorli rejissyor Nabi Abdurahmonov teatrga badiiy rahbar etib tayinlandi va u rahbarlik qilgan „Dard“ teatr-studiyasi ham Toshkent Davlat rus yosh tomoshabinlar teatri tarkibiga qo‘shildi.

O‘zbekiston Yoshlari teatri tashabbusi bilan 1998–2004- yillarda uch marotaba „Xumo“ xalqaro yoshlar teatrlari festivali o‘tkazilib, ularda Avstriya, Germaniya, Isroil, Gruziya, Rossiya, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakatlardan teatr jamoalari ishtirok etishib, O‘zbekiston teatr san‘atidan bahramand bo‘lishdi, tomoshabinlarimiz esa xorijiy teatrlar ijodi bilan yaqindan tanishishga miyassar bo‘lishdi.

O‘zbekiston Yoshlari teatri Sankt-Peterburgda har yili o‘tkaziladigan „Boltiqlik bo‘yi“ xalqaro teatr-festivalining doimiy qatnashchisi hisoblanadi. Shuningdek Moskvadagi A.P.Chexov nomidagi, Yekaterinburg, Saransk, Ukrainaning Dnepropetrovsk, Misr Arab Respublikasining Qohira, Fransiyaning Leon, Qozog‘istonning Almati, Isroilning Tel-aviv, Germaniyaning Drezden kabi qirqa yaqin shaharlarida istiqloq yillarida ijodiy safarda bo‘lishgan.

„Tomdagi skripkachi“ (Sholom-Aleyxem asari asosida), „Malikai Turandot“ (K.Gossi), „Zo‘raki tabib“, „Tartyuf“ (J.B.Moler) „Umar Hayyom yulduzlari“ (T.Zulfiqorov), „Shum bola“ (G.G‘ulom), „Qabohat tuzog‘i-XXI“ (J.Yusupov) o‘zbek

xalq ertaklari asosida sahnalashtirilgan „Yulduz to‘la osmonda“, „Mashuqai Malikaga hadya“ kabi ko‘plab badiiy yetuk spektakllar teatr repertuaridan munosib o‘rin olib kelmoqda.

Toshkent sirki

...1975- yilda zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi Toshkent sirki binosi qad ko‘tardi.

1992- yilda „O‘zbekdavlatsirk“ respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san‘atining rivojlanishiga, yosh iste‘dodli ijrochilarni qo‘llab quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbek liboslari galereyasi

Poytaxtimizning „Eski Jo‘va“ maydonida milliy liboslar namoyish etiladigan, kiyimlarni modellash va loyihalash, ularni milliy mato koloritida namoyish qilish, milliy kiyimlarni targ‘ib qilish va yangilarini o‘ylab topish, modalar namoyishini tashkil qilish, xalqaro uchrashuvlar va aloqalarni uyushtiruvchi, milliy libos san‘atini rivojlantirish, kontraktlar tuzish bilan shug‘ullanuvchi muhtasham imorat qad rostlagan. Bino „Modern“ uslubida qurilgan bo‘lib, uning balandligi 25,9 metr.

Uning birinchi qavatida vestibul, modalar galereyasi, atelye, savdo bo‘limi, kafe-barlar mavjud. Ikkinchi qavatida kiyimlar namoyishi zali, kolleksiyalar joyi, matolar va tayyor kiyimlar do‘koni, uchinchi qavatda tomosha maydoni, bufet, xizmatchilar va texnik xodimlar joylashgan.

Binoda o‘ziga xos me‘moriy yechimga ega bo‘lgan baland peshtoqli kirish qismi orqali serhasham ko‘rgazmalar zaliga o‘tiladi. Liboslar tayyorlanadigan ustaxonalar, savdo shoxobchalari bino qavatlariga joylashtirilgan.

Bino ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik namunalari bilan bezatilgan.

Toshkent kuranti

Toshkent kuranti shahardagi tarixiy me‘moriy yodgorlik bo‘lib, u shaharning markazida 1947- yilda qurilgan.

Uning minorasiga o‘rnatilgan surat soatsozlar brigadasi tomonidan 4 siferlatli qilib o‘rnatilgan.

Uning qurilishida milliy me‘morlik va amaliy bezak san‘ati

an'analari qo'llanilgan. U har chorak soatda, yarim soatda va bir soatda zang urib turadi.

2009- yilda ushbu kurantning egizagi ham ishga tushdi.

Toshkent metrosi

Bugungi kunda Toshkent shahar yo'lovchilarini tashish bo'yicha eng muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri – **Toshkent metrosidir.**

Toshkent metrosining birinchi yo'nalishi 1977- yil 6- noyabrda ishga tushirilgan bo'lib, mazkur liniya 9 bekatdan iborat edi. 1980- yil 18- avgustda bekatlar soni 12 taga yetdi. Hozirgi kunda Toshkent metropolitenining 3 ta yo'nalishida 29 ta bekat bo'lib, sutkasiga o'rtacha 300–350 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatilmoqda. Mavjud yo'nalishlar bo'yicha qatnaydigan poyezdlarning o'rtacha tezligi 39 km/soat, maksimal tezligi esa 65 km/soatdir.

Hozirgi kunda quyidagi metro bekatlari poytaxt – Toshkent aholisiga xizmat qilmoqda:

1. „Olmozor“ metro bekati.
2. „Chilonzor“ metro bekati.
3. „Mirzo Ulug'bek“ metro bekati.
4. „Hamza“ metro bekati.
5. „Milliy bog“ metro bekati.
6. „Bunyodkor“ metro bekati.
7. „Paxtakor“ metro bekati.
8. „Mustaqillik“ maydoni metro bekati.
9. „Amir Temur“ xiyoboni metro bekati.
10. „Hamid Olimjon“ metro bekati.
11. „Pushkin“ metro bekati.
12. „Buyuk ipak yo'li“ metro bekati.

13. „Beruniy“ metro bekati.
14. „Tinchlik“ metro bekati.
15. „Chorsu“ metro bekati.
16. „G'afur G'ulom“ metro bekati.
17. „Alisher Navoiy“ metro bekati.
18. „O'zbekiston“ metro bekati.
19. „Kosmonavtlar“ metro bekati.
20. „Oybek“ metro bekati.

21. „Toshkent“ metro bekati.
22. „Mashinasozlar“ metro bekati.
23. „Chkalov“ metro bekati.

24. „Mingo‘rik“ metro bekati.
25. „Yunus Rajabiy“ metro bekati.
26. „Abdulla Qodiriy“ metro bekati.
27. „Minor“ metro bekati.
28. „Bodomzor“ metro bekati.
29. „Habib Abdullayev“ metro bekati.

Xalqaro savdo ko‘rgazmasi majmuasi

Xalqaro savdo ko‘rgazmasi majmuasi Toshkent shahridagi yirik savdo-ko‘rgazma markazi bo‘lib, u 1999- yilda bunyod etilgan.

MUSTAQILLIK SHAROFATI BILAN

Xorazm Ma‘mun akademiyasi

Xorazm Ma‘mun akademiyasi 1004—1005-yillarda Xorazmda tashkil etilgan bo‘lib, O‘rta Osiyo tarixidagi ilk akademiyadir. Akademiyaning „**Ma‘mun**“ deyilishiga sabab, Ma‘muniy xorazmshohlar davrida (992- yillar), ularning homiyligida tashkil qilingan. 1017-yilda Xorazmshoh Ma‘munning isyonchilar tomonidan o‘ldirilishi akademiya faoliyatining yakunlanishiga sabab bo‘ladi. Shundan so‘ng, akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, olimlar ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, tarqalib ketganlar.

Mustaqillik sharofati bilan 1997-yilda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov „*Xorazm Ma‘mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida*“ farmon qabul qildi. Bu farmonga ko‘ra, ming yillar avval Xorazmda tuzilgan mazkur akademiya qayta tashkil qilindi. 2005-yilda akademiyaning 1000 yillik yubileyi nishonlandi.

Xorazm Ma‘mun akademiyasini qayta tashkil etish va uning faoliyati samaradorligini oshirish masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mazkur akademiya o‘sha davrning eng yetuk olimlari qatoridan joy olgan yana ko‘plab allomalarning asarlari ham ilm-u fan ahli e‘tiboriga havola qilinmoqda.

Akademiyaning mashhur olimlari qatoridan o'rin olgan yana bir a'zosi Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihi al-Jurjoniyydir. Allomaning turli sohalarga oid 40 dan ortiq asari mavjud bo'lib, bizgacha ularning sakkiztasi yetib kelgan. Bu asarlar hozirgi kunda Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Ular orasida „*Tabobat haqida yuz san'at*“ asari alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi qonuni

O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan.

1995-yil 21-dekabrda qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi qonuni 24 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi qonuni-ning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi belgilab qo'yilgan.

O'zbek tili

O'zbek tili — jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning shakllanishida, ayniqsa, o'zbek she'riyatining buyuk namoyandasi, so'z mulkinging sultoni, zullisonayn shoir Alisher Navoiyning xizmati katta. O'zbek tilining takomillashish jarayoni to'rt asosiy manbaning ishtirokida amalga oshgan:

- a) asl turkiy tillar;
- b) fors-tojik tilining asrlar davomidagi har tomonlama ta'siri;
- d) arab tilining o'rta asrlardagi sharq fanlari va islom dinining umumiy tili sifatidagi ta'siri;
- e) XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa tillari ta'siri.

Ana shunday ko'p tomonlama ta'sir hamda tilning ichki imkoniyatlari o'zbek tilining grammatik jihatdan mukammal shakllanishini ta'min etdi.

O'zbek tili shevalarga boy tillardan biri hisoblanadi.

O'zbek tili rivojlangan tillar qatoriga kiradi.

Lotin yozuviga o'tish

Lotin yozuviga o'tish istibdod yillaridagi milliy siyosatda yo'l qo'yilgan katta va jiddiy xatolardan birini tuzatish chorasidir. Lotin yozuviga o'tish O'zbekistonning rivojlanishini tezlashtirish hamda rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishida muhim ahamiyatga ega. Bu o'zgarish mustaqillik davrida amalga oshirilayotgan eng muhim, shu bilan birga, qiyin va murakkab amaliy tadbirlardan biridir. Yozuv sohasida o'zbek xalqi eng murakkab jarayonlarni boshidan kechirgan xalqlardan biri hisoblanadi. 1929-yilgacha, ming yildan ortiq davr davomida, ajdodlarimiz arab yozuvidan foydalanganlar. *1920-yillarning o'rtalaridan O'zbekiston gazeta va jurnallarida qarshi hujum boshlandi.* Tarixda hech bir yozuvga bu darajada shiddatli hujum qilinmagan edi. Arab yozuvi butun kamchiliklarning sababchisi deb, noto'g'ri talqin qilindi. Ayni vaqtda, o'zbek tilshunosligi hali yosh va zaif bo'lganligi uchun, bu hujumga qarshilik ko'rsata olmadi. 1929 — 1930-o'quv yilidan lotin alifbosiga ko'chib, o'zbek xalqini Navoiy va Muqimiy asarlari kabi asrlar davomida arab yozuvida yaratilgan ilmiy, badiiy va falsafiy adabiyotdan uzib qo'yildi. 30-yillarning o'rtalaridan boshlangan ruslashtirish siyosatining natijasi sifatida 1940-yilda o'zbeklar uchun *ruscha* (kirillitsa) yozuvi joriy etildi. Shunday qilib, o'zbek xalqi 1929—1940- yillarda chop etilgan badiiy, ilmiy, pedagogik o'quv adabiyotlardan uzoqlashtirildi. Bu — o'zbek tili, o'zbek madaniyati va umuman, o'zbek xalqiga katta zarba edi.

1940—1991- yillar oralig'idagi ellik yilda o'zbek tilida taxminan 50 ming nomda 50 million nusxadan ortiq kitoblar chop etildi. Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarning deyarli hammasi lotin yozuvidan foydalanadilar. Barcha hozirgi zamon yangi texnikasi va texnologiyasi, asosan, lotin yozuviga asoslangan. Biz mustaqil O'zbekistonni zamonamizning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqmoqdamiz. Lotin yozuviga o'tish ana shu oliyjanob vazifani bajarishning muhim omillaridan biridir. Bu jarayonning mushkul va murakkab

ekanligini ko'zda tutib, Vatanimizda bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ammo, lotin alifbosiga o'tish rus tilini o'rganishimizga aslo putur yetkazmasligi kerak, chunki rus tili jahondagi eng rivojlangan yettita (ingliz, nemis, fransuz, arab, ispan, portugal) tilning biri hisoblanadi. Boshqa xorijiy tillar qatori rus tili va yozuvini ham mukammal o'zlashtirish, o'rganish yosh avlodning kelgusida barkamol shaxs bo'lib shakllanishining muhim omillaridan biridir.

DAVLAT TILI

Mamlakat qonunchiligida rasmiy ish yuritishda, sud jarayonida, o'quv faoliyatida qo'llaniladigan asosiy til davlat tilidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir (4-modda). O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi maxsus qonun bilan ham belgilangan. Konstitutsiya va Qonunda o'zbek tilining davlat tili deb belgilanishi boshqa har qanday tillarning muomalada bo'lishini rad etmaydi. Boshqa tillardan ham kundalik hayotda, turmushda keng foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ba'zi mamlakatlarda bir necha til davlat tili sifatida belgilanishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi — O'zbekistondagi eng yirik kutubxona bo'lib, kutubxonashunoslik va bibliografiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ilmiy-uslubiy markazidir. Respublikaning ma'naviy-madaniy markazi sifatida jamiyatning ma'naviy va axborot ehtiyojlarini qondirish, fan, maorif milliy madaniyatni boyitishga xizmat qiladi, mamlakatdagi barcha kutubxonalar uchun kutubxonachilik, bibliografiya, ilmiy tadqiqot, metodika va axborot ishlarini amalga oshiradi. Toshkent davlat kutubxonasi Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasiga a'zodir.

Mazkur kutubxonaga Toshkent shahrida 1870-yilda Toshkent ommaviy kutubxonasi nomi bilan asos solingan. 1948-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan

kutubxonaga shoir nomi berilgan. U 2002-yildan boshlab hozirgi nomda faoliyat yuritadi.

Toshkent davlat kutubxonasi Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi va O'zbekiston milliy kitob palatasini o'zida birlashtirgan yirik bilim maskanidir. Uning fondida 8,5 mln.ga yaqin kitob mavjud (2010).

Mazkur kutubxonaning asosiy vazifasi kitobxonlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish, yig'ilgan axborotni kitobxonga yetkazish, tarixning boy madaniy merosini, axloqiy g'oyalarga to'la asarlarni to'la o'rganishga yordam berishdir. Uning o'ta qimmatbaho va nodir nashrlar fondi kutubxona kitoblar to'plamining faxridir. Unda saqlanadigan nodir kitoblar soni 15 mingdan ortiq. 250 ming taboqdan iborat qo'lyozma materiallar bor.

Kutubxona fondida O'rta Osiyoning XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixi, etnografiyasi, geografiyasi va madaniyatiga oid 594 jilddan iborat noyob ensiklopediya to'plamlari bor.

Kutubxona fondini butlash maqsadida har yili turli manba va nashrlardan o'rtacha o'n besh-yigirma nusxadan kitoblar keltiriladi.

Shuningdek, respublikada nashr etiladigan asarlarning 2 nazorat nusxasi ham keltiriladi.

2010- yidda mazkur kutubxonaning tashkil etilganiga 140 yil to'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2008- yil 25- dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartish kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi VI bo'lim, 26 ta bob, 128 ta moddadan iborat.

Birinchi bo'lim — Asosiy prinsiplar.

Ikkinchi bo'lim — Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.

Uchinchi bo'lim — Jamiyat va shaxs.

To'rtinchi bo'lim — Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi.

Beshinchi bo'lim — Davlat hokimiyatining tashkil etilishi.

Oltinchi bo'lim — Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.

1-modda. O'zbekiston — suveren demokratik respublika. Davlatning „O'zbekiston Respublikasi“ va „O'zbekiston“ degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

6-modda. O'zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

8-modda. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

42-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

45-modda. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

46-modda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

47-modda. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar.

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bog'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning va-siyiligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyat-larini rag'batlantiradi.

126-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega.

Mazkur Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining oliy yuridik kuchga ega hujjati bo'lib, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari unga amal qilishlari shart.

Huquqiy madaniyat — qonunlarni bilish, unga amal qilish, hurmat qilish va qonunning ustuvorligini tan olish demakdir.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Konstitutsiya va qonunning ustunligi huquqiy davlatning muhim shartlaridan biri bo'lib, bunda Konstitutsiya va qonunlarga hammaning so'zsiz amal qilishi zarurligi, hech qanday hujjat ularga zid bo'lmasligi tushuniladi.

Adolat (odillik) — axloq va huquqning me'yoriy katego-riyasi. Adolat natijasida tenglikka erishiladi, insonparvarlik ta'minlanadi.

Axloq — kishilarning bir-biriga, oilaga, Vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlar yig'indisidir. Axloq har bir kishining xulqini, ichki dunyosini ko'rsatadi.

Bevosita demokratiya — demokratiyaning bir shakli bo'lib, u har bir fuqaroning davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita, ya'ni shaxsan ishtirok etishidir.

Birlashish huquqi — bu siyosiy huquqlardan biri bo'lib, siyosiy va boshqa xarakterdagi birlashmalarga birlashish

imkoniyatidir. Har qanday ittifoq va assotsiatsiyalarga birlashish ham shu huquq orqali amalga oshadi. Konstitutsiyaviy tuzumga ko'ra, fuqarolar manfaatiga ziyon keltiruvchi tashkilotlarga birlashish taqiqlanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

1948-yil 10-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini tasdiqladi va e'lon qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan ushbu xalqaro hujjatda insonlarning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati, or-nomusi, oila qurishi, farovon hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklar belgilangan. BMTga a'zo har bir davlat shu hujjatda ko'rsatilgan huquq va erkinliklarni ta'minlash majburiyatini oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlariga taalluqli normalarida shu hujjat qoidalari o'z o'rnini topgan. Har bir mamlakatdagi inson huquqlariga taalluqli bo'lgan huquqiy hujjatlar, bu hujjatlarga zid bo'lmasligi kerak.

1-modda

Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar.

Insonlarga aql va vijdon ato etilgan.

Insonlar bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabat qilishlari kerak.

2-modda

Har bir inson irqi, jinsi, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, ushbu deklaratsiyada e'lon qilingan huquqlar va erkinliklarga ega bo'lishlari shart.

3-modda

Har bir inson yashash, ozod bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

4-modda

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas.

7-modda

Barcha odamlar qonun oldida tengdirlar.

16-modda

Nikoh faqat nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkin.

18-modda

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligiga ega.

26-modda

Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega.

29-modda

Har bir inson jamiyat oldida burchlidir.

„Bola huquqlari to'g'risida“gi konvensiya

„Bola huquqlari to'g'risida“gi konvensiya BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1959-yil 20-noyabrda qabul qilingan.

U 3 ta qism va 54 ta moddadan iborat.

Mazkur Konvensiya dunyoning har bir mamlakatida bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni himoya qilish, mustaqil hayotga to'la tayyorlash, o'sib-ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlarini va boshqalarni ta'minlaydi.

Mustaqillik — ulkan bunyodkorlik

Istiqlolning har bir yili tarix sahifalariga ulkan bunyodkorlik, xalqimiz erishayotgan olamshumul yutuqlar, ezgulik va shodumonlik, taraqqiyot va farovonlik yili sifatida bitilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Prezidentining birinchi farmoni poytaxtimizdagi bosh maydonni **Mustaqillik maydoni** deb atash to'g'risida bo'lgan. Bu mamlakatimizda ulkan o'zgarishlar silsilasini boshlab berdi.

1993-yilda Toshkentning Markaziy xiyobonida **Sohibqiron Amir Temur** haykali ochildi.

1996-yilda xiyobon shimolida muhtasham **Temuriylar tarixi davlat muzeyi** qad rostladi.

Xiyobon sharqida xalqimiz bunyodkorligining yana bir timsoli sifatida qad rostlagan **Xalqaro anjumanlar saroyi** Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyi arafasida, davlatimiz rahbarining g'oyasi asosida bunyod etilgan saroy bo'lib, u sharqona me'moriy qadriyatlar va zamonaviy arxitektura yutuqlarini o'zida mujassam etgan. Bu yerda yirik xalqaro anjumanlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsertlar o'tkaziladi.

U o'zida milliy va zamonaviy me'morchilik uslublarini mujassam etgan. Uning balandligi 48 metr bo'lib, u 300 o'rinli majlislar, 300 o'rinli qabullar zali va 1800 o'rinli anjumanlar zaliga ega.

„O'zbekiston“ xalqaro anjumanlar saroyi 2009-yil 1-sentabr kuni ochildi va unda Toshkentning 2200 yilligi sanasi tantanali nishonlandi. Mazkur bino yonida Toshkent kurantining egizagi ham qurilib, foydalanishga topshirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z tarkibiga ko'ra 6 ta asosiy organ, shuningdek, bu asosiy organlarga ko'maklashish uchun tuzilgan ma'lum miqdordagi qo'mita va komissiyalardan iborat.

Bosh Assambleya — Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng nufuzli organidir. Uning har yili sentabr oyida chaqiriladigan sessiyalarida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo barcha davlatlarning delegatsiyalari qatnashadilar.

Xavfsizlik Kengashi 15 davlat vakillaridan tashkil topadi. Ularning 5 tasi doimiy a'zo (AQSH, Rossiya, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya), 10 ta muvaqqat a'zo davlatlar har ikki yilda almashinib turadilar. Xavfsizlik Kengashi davlatlar o'rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va agressiyaning oldini olish, yangi a'zolar qabul qilish va boshqa masalalarni o'rganadi, qarorlar qabul qiladi yoki tavsiyalar beradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohalariga oid masalalar bilan shug'ullanadi.

Vasiylik Kengashi tobe hududlar masalalarini nazorat etib boradi.

Xalqaro sud xalqaro siyosiy va iqtisodiy, huquqiy, hududiy masalalarni hal etishda yuzaga kelgan barcha muammolar bo'yicha, vaziyat talab qilganda o'z fikrlarini aytadi yoki hukmini chiqaradi.

BMT kotibiyati tashkilotning kundalik ishini ta'min etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi 1945-yilning iyun oyida San-Fransiskodagi konferensiyada imzolanib, 1945-yil 24-oktabrdan kuchga kirgan. Shu sababli har yili 24-oktabr Birlashgan Millatlar Tashkilotining kuni sifatida nishonlanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov 1993-yil 28-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida nutq so'zladi.

O'zbekiston rahbari xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi.

2010- yil 20- sentabrda BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi. Mazkur nutqda yurtboshimiz Mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida amalga oshirilgan ishlar, O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi, Markaziy Osiyodagi bugungi jarayonlar, mintaqaviy xavfsizlik va ekologiya muammolari, Afg'oniston mojarosi va uni hal etish yo'llari haqida alohida to'xtaldi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoliciga 1992-yil 2-martda qabul qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarorgohi AQSHning Nyu-York shtatida joylashgan.





**Mustaqillik yillarida UNESCO bilan hamkorlikda
quyidagi buyuk allomalar, davlat arboblari, mutafakkirlar
va shoirlarimizning hamda tarixiy ko'hnna shaharlarimizning
yubileylari nishonlandi:**

- 1991 - yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
- 1994 - yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996 - yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997 - yil – Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi;
- 1998 - yil – Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1998 - yil – Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi;
- 1999 - yil – Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi;
- 1999 - yil – „Alpomish“ dostonining 1000 yilligi;
- 2000 - yil – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi;
- 2000 - yil – Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi;
- 2000 - yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001 - yil – „Avesto“ yaratilganining 2700 yilligi;
- 2002 - yil – Termiz shahrining 2500 yilligi;
- 2002 - yil – Shahrizabz shahrining 2700 yilligi;
- 2003 - yil – Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi;
- 2006 - yil – Qarshi shahrining 2700 yilligi;
- 2006 - yil – Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligi;
- 2007 - yil – Marg'ilon shahrining 2000 yilligi;
- 2007 - yil – Samarqand shahrining 2750 yilligi;
- 2009 - yil – Toshkent shahrining 2200 yilligi.

TARIXIY SHAXSLAR

Muhammad al-Xorazmiy

(783 — 850)



Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan.

Uning asl ismi Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso bo'lib, 783-yilda Xivada tug'ilgan. Xorazmiy dunyoga mashhur matematik va astronom sifatida tanilgan. Xorazmiyning nomini tarixda qoldirgan buyuk asari „Al-jabr val-muqobala“ risolasidir. U keyinchalik matematikaning alohida sohasi bo'lgan

algebra faniga asos bo'lgan. Ana shunga ko'ra, uning nomi Yevropa mamlakatlariga ham yoyildi. Hozirgi zamon hisoblash texnikasida keng qo'llanayotgan „algoritm“ atamasi ham olim nomidan kelib chiqqan.

Uning asarlari: „Zij“, „Surat al-arz“, „Kitob muxtasar min hisob al-jabr val-muqobala“, „Hind hisobi haqida kitob“, „Qo'shish va ayirish kitobi“, „Astrolyabiyalar bilan amallar haqida kitob“, „Kitob at-tarix“ va boshqalar.

Ahmad al-Farg'oniy

(taxminan 797 — 865-yillar)



O'rta asrlarda yashagan o'rta osiyolik astronom, matematik, geograf olimdir. Olimning to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir. Manbalarda uning farg'onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.

Farg'oniyning asosiy astronomik asari „Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi“ bo'lib, bu kitob Yevropaning ko'p tillariga tarjima qilingan.

Hozirgi kunda Farg'oniyning sakkizta asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Ular quyidagilar:

„Astronomiya asoslari haqida kitob“, „Asturlab yasash haqida kitob“, „Asturlab bilan amal qilish haqida kitob“, „Al-Farg'oniylar jadvallari“, „Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola“, „Yetti iqlimni hisoblash haqida“, „Quyosh soatini yasash haqida kitob“ va „Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi“.

Ahmad al-Farg'oniylar Bag'doddagi „Bayt ul-hikmat“ ilmiy markazida ilmiy ishlar bilan shug'ullangan. Kitoblari o'rta asrlarda Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik va qo'llanma hisoblanib, muallifning ism-nasabini lotinchasiga „Alfraganus“ deb ataganlar. Ahmad al-Farg'oniylar „Alfraganus“ taxallusi bilan dunyoda mashhur va ma'lumdirlar.

Farg'oniyning nomi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda, tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'ng G'arb va Sharq mualliflari asarlarida, o'z yurti O'zbekistonda, ayniqsa, zo'r g'urur va iftixor bilan tilga olinadi, o'rganiladi, hozirgi kunda ko'chalar, o'quv yurtlariga uning nomi berilgan.

Imom Muhammad Ismoil al-Buxoriylar

(810 — 870)

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriylar 810-yil 21-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. 870-yil 31-avgustda Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida vafot etgan.

Al-Buxoriylar „Hadis ilmida amir al-mo'minin“ (Hadis ilmida musulmonlarning yetakchisi) degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan buyuk olim, muhaddis, hadisshunos mutafakkir olimdir.



Imom al-Buxoriylar yigirmadan ortiq asar yozgan bo'lib, ular orasida eng mashhuri „Al-Jomi as-sahih“dir. Ushbu asar

yozilganiga 1200 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lib, islom olamida Qur'oni Karimdan keyin turuvchi ikkinchi manba hisoblanadi. Bu kitobning 1325-yilda ko'chirilgan sakkiz jildidan iborat go'zal nusxasi bugungi kunda Istanbulda saqlanadi.

Uning asarlari: „Al-Jomi' as-sahih“, „Al-Adab al-mufrad“, „At-Ta'rix“, „At-Ta'rix al-kabiyr“, „Kitob al-ilal“, „Asomi us-sahoba“, „Kitob al-kuna“ va boshqalar.

At-Termiziy

(824 — 892)



At-Termiziyning to'liq ismi sharifi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhor Shaddod Sullami Bug'iy Termiziy. U 824-yili Termizda uncha badavlat bo'lmagan oilada tavallud topgan. Musulmon olamida mashhur yirik muhaddislardan hamda Qur'oni Karim tafsirchilari orasida eng yetuklaridan biri. Bu insonni Abu Abdulloh al-Hakim at-Termiziy (X asrning birinchi choragida vafot etgan) va boshqa Termiziylar bilan chalkashtirmaslik lozim.

At-Termiziy yoshligidan mukammal oliy musulmon ta'limini olgan. Hadislarni to'plash maqsadida Xuroson, Iroq, Hijoz shaharlarida ziyoratda va sayohatda bo'lgan. Payg'ambar hadislarini to'plash va o'rganishda o'ziga xos hadislar isnodlari (nisbat berish zanjirining bog'lanishi) va har bir hadis atro-fida mazhablararo nuqtayi nazar kurashiga e'tibor bergan, xolisona tahlil va talqin qilgan.

Uning asarlari: „Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatleri“, „Hadislardagi illatlar“, „Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola“, „at-Ta'rix“, „Kitob uz-zuhd“, „Jomi' at-Termiziy“ va boshqalar.

Al-Moturidiy

(870 — 944)

Al-Moturidiy hidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi taxminan 870-yilda Samarqand tumani Moturid qishlog'ida

tugʻilib, shu maskanda 944-yili vafot etgan. Qabri Samarqand shahrida. Oʻzidan salmoqli meros qoldirgan. Olimning, ayniqsa, yakkaxudolik va Qurʻon tafsiriga bagʻishlangan „Kitob at-tavhid“ hamda „Kitob taʼvilot al-Qurʻon“ nomli asarlari ulamolar orasida katta hurmat qozongan.



Al-Moturidiy ilohiyot ilmlarini toʻla shakllantirib, takomiliga yetkazdi, ularni qayta ishlab chiqdi va tizim (sistema)ga soldi. Bundan tashqari, u islom falsafasini ham ishlab chiqdi. U yaratgan taʼlimot islom dinining buyuk aqidaviy oqimlaridan biri sifatida butun islom olamiga tanildi.

Unga islom ulamolari nafaqat „shayx“, balki „rais ahl as-sunna val jamoa“ deb taʼrif berganlar.

Al-Moturidiy islomning sunniylik yoʻnalishidagi hanafiylik mazhabiga eʼtiqod qilgan. Islom ilohiyotshunosligi (teologiya) boʻyicha oʻndan ortiq yirik asarlar yozgan. Shulardan ayniqsa ikkitasi — „Kitob at-tavhid“ va „Taʼvilot ahl as-sunna“. islom olamida tengi yoʻq asarlar hisoblanadi.

Sunniylikdagi toʻrt — hanafiya, shofiʼiyya, molikiya, hanabiya mazhablarining asosiy gʻoyalari, eʼtiqod qonun-qoidalari ana shu ikki buyuk mutafakkir alloma — al-Moturidiy va al-Ashʼariy taʼlimoti ustiga qurilgandir.

Abu Nasr Forobiy

(873 — 950)

Qomusiy olimlarimiz orasida Forobiyning nomi alohida hurmat va ehtiromga sazovor. Forobiy uning taxallusi boʻlib, toʻliq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlugʻ Tarxon Forobiy. U 873- yilda Forob (Sirdaryo qirgʻo- gʻidagi Forob — Oʻror)da tugʻilib, 950- yilda Damashqda vafot etgan.

Dunyo ilm ahli yunon olimi Aristotel (Arastu)ni birinchi muallim deb biladi, Forobiyni esa „al-Muallim as-soniy“,



ya'ni „Ikkinchi muallim“ deb ataydi. Forobiy „Arastu qonunlarining mohiyati haqida“gi asarida davlat va huquq haqidagi qarashlarini keng bayon qiladi.

Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. U „Fozil shahar aholisining fikrlari“ asarida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar haqida fikr yuritadi.

Forobiy 160 dan ortiq asar muallifidir. U yunon olimlari Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy va boshqalarning asarlariga sharhlar yozgan. Bu sharhlar O'rta Osiyo va jahon olimlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularning Aristotelning materialistik dunyoqarashi bilan oshno bo'lishlarida yaqindan yordam bergan.

Uning asarlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar.

2. Fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiyning asarlari: „Masalalar manbayi“, „Qonunlar haqida kitob“, „Falak harakatining doimiyligi haqida“, „Kattalarning aqli haqida so'z“, „Yoshlarning aqli haqida kitob“, „Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima“, „Mantiq ilmiga kirish“, „Isbot kitobi“, „Jonning mohiyati haqida risola“, „Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi“, „Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z“, „Hajm va miqdor haqida so'z“, „Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarni to'g'rilash usuli haqida maqola“, „Musiqqa haqida katta kitob“, „Fizika usullari haqida kitob“, „Inson a'zolari haqida risola“, „Hayvon a'zolari funksiyasi va potensiyasi“, „She'riyat san'ati qonunlari haqida risola“, „Lug'atlar haqida kitob“, „Baxt-saodatga erishuv haqida“, „Shaharni boshqarish“, „Urush va tinch turmush haqida kitob“, „Fazilatli xulqlar“ va boshqalar.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o'rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi.

Abu Rayhon Beruniy

(973 — 1048)

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabi fanlarni chuqur bilgan.

Abu Rayhon Beruniy jahon, xususan, Sharq madaniyati va fanining yorqin siymolaridan biri, oʻrta asrlar davrining buyuk qomisiy olimidir. U 973-yil Xorazmda tugʻilgan. 1973-yil UNESCO tashabbusi bilan Beruniy tavalludining 1000 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Beruniy Xorazmshoh Maʼmun rahnamoligida Urganchda vujudga kelgan oʻz davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biri — Maʼmun akademiyasida faoliyat koʻrsatdi. Abu Rayhon Beruniyning oʻrta asrlar fanlariga, xususan, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geografiya, geologiya, farmakognezeziya, falsafa, xronologiya, fanlar tarixi va boshqa fanlarga qoʻshgan ulkan hissasi uni butun dunyoga tanitdi. Beruniy ulkan meros — oʻz davri ilm-fanning turli sohalari uchun 160 dan ortiq asarlar, bir necha tillardan qilingan tarjimalar, turli yozishmalar qoldirdi.



Uning asarlari: „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“, „Hindiston“, „Masʼud qonuni“, „Geodeziya“, „Saydana“, „Munajjimlik sanʼatidan boshlangʻich tushunchalar“, „Astrologiyaga kirish“, „Astronomiya kaliti“, „Jonni davolovchi quyosh kitobi“, „Koʻpaytirish asoslari“, „Foydali savollar va toʻgʻri javoblar“, „Ibn Sino bilan yozishmalar“ va boshqalar.

Abu Ali ibn Sino

(980 — 1037)

Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olimidir. Uning falsafa, meditsina, astronomiya, zoologiya, botanika, geologiya, psixologiya, musiqa, axloq, mantiq, tilshunoslik, adabiyotshunoslikka oid asarlari mavjud. Uning „Tib qonunlari“ asari nihoyatda mashhur. U badiiy ijod bilan ham shugʻullangan.

U hijriy 370 (milodiy 980)- yilda Afshona qishlogʻida tugʻilgan. Bu qishloq Buxoro yaqinidadir.



Ibn Sino o'tkir qobiliyat egasi edi. U „Qur'on“ni qiroat bilan o'qib yodlash uchun bir yilgina vaqt sarflaydi. Ibn Sinoning shuhrati ko'proq tabobat ilmi bilan bog'liq. Ayniqsa, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolashda ishtirok etishi tabibning dovrug'ini oshirib yuboradi. Bu paytda u 16—17 yoshlar chamasida bo'lgan. Buning evaziga u saroy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritadi.

Ibn Sinoning asarlari soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos.

Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari „Kitob ash-shifo“ („Shifo kitobi“) 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egalagan.

Ibn Sino tabobat sohasida mashhur bo'lgan. Uning asarlari: „Tib qonunlari“, „Ichak sanchiqlari“, „Tomir ko'rish haqida kitob“, „Tib haqida hikmatli so'zlar“, „Tibbiy ko'rsatmalar“ va boshqalar.

Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab tarjima qilina boshladi.

Ahmad Yassaviy

(1041 — 1166)

Turkiston mulkining shayxul mashoyixi (Navoiy, „Nasoyim ul-muhabbat“) Ahmad Yassaviy Qozog'istonning Sayram shahrida ma'rifat va javonmardlikka ixlosi baland bo'lgan eng nufuzli Ibrohim ota oilasida 1041-yilda tug'ilgan. Yetti yoshda Yassiga borib, birinchi ma'naviy ustози Arslonbobo bilan uchrashdi va ilk saboqni undan oldi.

Ahmad Yassaviy hikmat yozish an'anasini boshlab bergan ijodkor. U „Devoni hikmat“ida shariat (islom dini qonun-qoidalari va urf-odatları), tariqat (tasavvuf maslagi), ma'rifat (ishqi ilohiy), haqiqat (Alloh va unga erishmoq)ni targ'ib qildi.

Ahmad Yassaviyning fikricha, haqiqat — qalbd. Qalb esa Allohning mulki. Butun olam bilan ruhan uyg'unlashish — oliy saodat. Saodat — ma'rifat nurlari bilan ong va ruhni tiniqlash-tirishdir.

Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga (payg'ambar yoshiga) yetgach, yer ostiga hujra yasatib, „chilla“ga kirgan. Qolgan

umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan. Bir rivoyatga ko'ra, u 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rgan.

Burhoniddin Marg'ioniy

(1123 — 1197)

Buyuk olim Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'ioniy 1123-yil 23-sentabrda tug'ilgan. U Qur'on, hadis ilmlarini, islom huquqshunosligini mukammal bilgan.

Burhoniddin al-Marg'ioniy XII asrdan beri ma'rifat olamining diqqatini Marg'ilon xususan, ona yurtimizga jalb qilib kelayotgan mashhur allomadir. Uning shoh asari „Al-Hidoya“ musulmon huquqi tarixida munosib o'rin olgan va shu paytgacha musulmon olamida qo'llanib kelinayotgan, islom mamlakatlarida o'z ahamiyatini yo'qotmagan izchil va mukammal asar hisoblanadi.

Uning asarlari: „Shayxlar haqidagi kitob“, „Boshlovchilar uchun qo'llanma“, „Mazhabning tarqalishi“, „Haj marosimlari“, „Farzlar kitobi“, „Nozil bo'lgan narsalar to'plami“ va boshqalar.



Najmiddin Kubro

(1145 — 1221)

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir. Najmiddin Kubro 1145-yil Xiva shahrida tug'ilgan.

Najmiddin Kubroning asl nomi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy bo'lib, shariat va tariqat ilmining buyuk donishmandi bo'lgani uchun Kubro (ulug'larning ulug'i), Najmiddin (dinning yulduzi) nomlari bilan dong taratgan. Iste'dodli muridlar tarbiyalashda mahorat ko'rsatgani

sababli uni „Shayxi valiytarosh“ (valiylarni voyaga yetkazuvchi) ham deganlar.

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozganki, ular juda ko'p tazkiralarda uchraydi. U o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari „Favoix al-jamol va favotix al-jalol“, „Al-usul al-ashara“, „Risolat al-xoif al-hoim min lavm al-loim“ va boshqalardir.

Najmiddin Kubro mo'g'il bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib shahid bo'lgan.

Najmiddin Kubro ulug' ruhoniy shayx, karomatli donishmand, faylasuf va vatan uchun jon fido qilgan buyuk inson sifatida bizga aziz va faxr-ibrat namunasidir.

Jaloliddin Manguberdi

(1198 — 1231)



Tarixga nazar tashlagan chog'imizda, tarixiy shaxslar qatorida yosh va navqiron, shu bilan birga, jasur shahzoda Jaloliddin Manguberdi ko'zga tashlanadi. Ko'p ming sonli Chingiz lashkarini 12 ta jangda mag'lubiyatga uchratgan Jaloliddin Manguberdi 1198-yilda Xorazmda tavallud topgan. Mamlakatda siyosiy tang vaziyatlar yuzaga kelib turgan vaqtda Chingizxon qo'shinlari Xorazm davlati tinchligiga xavf sola boshlaydi. 1220-yil 20-dekabrda Sulton Muhammad Xorazmshoh vafot etadi. 1221-yilning boshida Jaloliddin Manguberdi Xorazm sultoni deb e'lon qilinadi. U mamlakatni mo'g'illar bosqinidan mudofaa qilishga jiddiy kirishadi. U Temur Malik bilan birga fitnani bostirish uchun Xurosonga jo'nab ketganida, vaqtdan unumli foydalangan Chingizxon qo'shinlari mudofaa zaifligi tufayli Urganchga kirib oladilar. Lekin, Jaloliddin undan keyin ham dushmanga qarshi kurashib, bir necha marta g'alaba qozonadi. Faqatgina 13-jangda Jaloliddin qo'shinining beklari orasidagi ichki nizolar sabab, ularning tarqoqligi natijasida, Xorazmshoh g'alabaga erisha olmaydi. Yosh va jasoratli shah-

zodaning o'tyurakli ekanligiga Chingizxon qoyil qolib, uni ta'qib etmaslikni afzal ko'radi. Jaloliddin ona yurt ozodligi va hurligi yo'lida to'xtovsiz kurash olib boradi. Matonatli sarkarda 1231-yilda Kurdiston tog'larida halok bo'ladi.

Bahouddin Naqshband

(1318 — 1389)

Bahouddin Naqshband (Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy) mashhur shayx, o'z nomi bilan atalgan naqshbandiylik oqimi, ya'ni tariqatining asoschisi. Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida 1318-yilda tug'ilgan va shu yerda 1389-yilda vafot etgan.



Naqshband tariqati markazida axloqiy va xulq-odob qoidalariga izchil amal qilish turadi. Shu qoidaga amal qilgan Naqshband dehqonchilik bilan shug'ullanadi, shundan olgan mahsulot va daromad bilan kun kechirardi. U yoshligidanoq so'fizm yo'liga kiradi va „inson xudodan“, „inson xudo bilan“, „inson xudo uchun“, „inson xudoga“ degan aqidalarga asoslangan tasavvuf deb atalmish diniy-falsafiy oqimga o'zini bag'ishlaydi.

Xoja Bahouddin Naqshbandni O'rta Osiyo xalqlari juda yuksak qadrlaydilar. Xalqimiz uni „Bahouddin — balogardon!“ deya behad e'zozlaydi.

Xoja Bahouddin Naqshband mutasavvuf donishmandlarning poklik, to'g'rilik, mehr-shafqat, adl-u insof, imondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umum-bashariy belgilari davrimizga hamohang bo'lib, kelajak uchun xizmat qiladi.

1993-yilda O'zbekistonda Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi zo'r tantanalar bilan o'tkazildi, unga bag'ishlab qator asarlar nashr etildi, Xalqaro ilmiy konferensiyalar bo'lib o'tdi. Buxorodagi Naqshband yodgorligi qaytadan tiklandi.

Amir Temur

(1336—1405)



Shavkatli hukmdor, yengilmas sarkarda, yirik davlat arbobi Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) ning Xo'jailg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. U tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini, turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarni yaxshi bilgan.

Samarqandni o'z saltanatiga poytaxt etgan, o'z vatani Movarounnahrni turli bosqinchilar hujumidan muntazam himoya etgan Sohibqiron Kavkaz, Iroq, Eron kabi mamlakatlarni o'z davlatiga bo'ysundirish bilan birga qudratli Temuriylar saltanatiga asos soldi.

Amir Temur O'rta Osiyoni mo'g'illar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo'naltirgan yetakchi rahbardir.

O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan 1996-yil „Amir Temur yili“ deb e'lon qilindi.

Shavkatli hukmdor Amir Temur maqbarasi (Go'ri Amir) Samarqandda joylashgan.

Mirzo Ulug'bek

(1394 — 1449)



Ulug'bek 1394-yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi.

Mirzo Ulug'bek nomi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan bu inson temuriy hukmdorlardan biri bo'lib, saltanatni boshqarish bilan birga ilm-fan, xususan, astronomiya ilmi bilan ham shug'ullanib, yulduzlar olami haqida muhim ma'lumotlar to'pladi. Ilm-fan ahliga homiylik ko'rsatdi. Uning asarlari bugungi kunda

ham o'z ahamiyatini to'la saqlab kelmoqda. Ulug'bek 1424—1429-yillarda Samarqand shahrida dunyoga mashhur rasadxona barpo qildi.

Uning asarlari: „Ziji jadidi Ko'ragoniy“, „Risolayi Ulug'bek“, „Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola“, „To'rt ulus tarixi“.

Ulug'bek ilmiy merosining ma'lum va mashhuri „Zij“ (bu asar „Ziji Ulug'bek, Ziji jadidi Ko'ragoniy“) asari bo'lib, bu asar ikki qismdan iborat: 1) Keng muqaddima, 2) 1018 ta yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan 1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda katta tantanalar va Xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Parijda ham UNESCO qarori bilan uchrashuvlar va konferensiyalar bo'lib o'tdi.

Alisher Navoiy

(1441—1501)

So'z mulkining sultoni, buyuk muta-fakkir olim, davlat va jamoat arbobi, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotda tavallud topgan.

Navoiy o'zbek adabiyotini o'zining boy ijodiy merosi bilan dunyoga tanitdi. Ayniqsa, uning „Xamsa“ asari butun dunyoga mashhur. Navoiy badiiy ijoddan tashqari til, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarga bag'ishlangan yana bir qancha asarlarning muallifi ham sanaladi.



Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvar kuni ona shahri Hirotda vafot etdi.

Navoiyning boy adabiy merosi:

„Xamsa“ (1483—1485-yillar; 50 ming misra):

„Hayrat ul-abror“, „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Sab'ayi sayyor“, „Saddi Iskandariy“.

„Hiloliya“ (1469), „Vaqfiya“ (1484), „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“ (1488), „Holoti Pahlavon Muhammad“ (1493), „Majolis un-nafois“, „Nasoyim ul-muhabbat“ (1493), „Mezon ul-avzon“ (1492), „Xazoyin ul-maoniy“ (Chor devon), „Lison

ut-tayr“ (1498), „Muhokamat ul-lug‘atayn“ (1498), „Mahbub ul-qulub“ (1500) va boshqalar.

Navoiy o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotining so‘nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning ma‘naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi. Uning asarlari, she‘riyati qayta-qayta ko‘chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o‘tadi, madrasalarda keng o‘rganildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur

(1483—1530)



Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda dunyoga kelgan. 1530-yil dekabr oyida o‘zi obod qilgan Agra shahrida vafot etdi va o‘sha yerga dafn etildi. Uning xoki vasiyatiga ko‘ra 1539-yili Kobuldagi „Bog‘i Bobur“ga qo‘yildi.

Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ (Sher) laqabini olgan. Otasining vafotidan keyin o‘n ikki yoshida u taxtga chiqadi. 1504-yilda Afg‘onistonga o‘tadi va u yerda tarqoq afgon va turk qabilalarini birlashtirib, 1508-yilda o‘zini rasmiy ravishda ularning podshohi deb e‘lon qiladi. O‘z davlatini kengaytirish va mustahkamlash uchun kurashib, Hindistonni jiddiy o‘rganib boradi. Qator urinishlardan so‘ng, 1526-yilda Dehli yaqinidagi jangda 12 ming askari bilan 100 mingtacha askar, ikki ming harbiy filga ega hind podshohini yengadi.

Bobur Hindistonda boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.

Uning „Boburnoma“ memuar asari (1518—1530) u yashagan davr siyosati, muhiti, geografik tuzilishi, shu bilan birga, 1494—1529-yillardagi tarixiy-siyosiy voqealar va boshqa qator muhim ma‘lumot beruvchi manba bo‘lib, uzoq yillardan buyon xizmat qilib kelmoqda.

Boburning vatan va yurt hijroni azoblari, dunyo o‘tkinchiligi kabi masalalar tasvirlangan, yaxshilik va ezgulik kabi fazilatlar

madh etilgan dilbar she'rlari adabiyotimizning eng noyob durdonalaridan biridir.

Mo'jizakor Hindiston diyorida qad rostlagan go'zal va betakror, dunyoning yetti mo'jizasidan biri bo'lmish afsonaviy Tojmahal qasri va uning bunyod etilishi Mirzo Bobur asos solgan boburiylar sulolasiga mansub boburiy shahzodalar nomi bilan chambarchas bog'liq. Har yili 14-fevral kuni O'zbekistonning butun ma'rifat ahli va dunyodagi barcha ma'rifatparvar o'zbeklar dilbar shoir va saodatli shoh Mirzo Boburning tavallud kunini nishonlaydilar.

Uning asarlari: „Boburnoma“, „Mubayyin“, „Harb ishi“, „Aruz haqidagi risola“.

Mahmud Torobiy

(XIII asr)

Mo'g'illar istibdodi davrida Mavorounnahrda yuz bergan muhim voqealardan biri – Mahmud Torobiy yetakchilik qilgan qo'zg'olon bo'ldi.

Mahmud Torobiy Buxoroda hunarmand oilasida tug'ilgan. G'alvirchilik bilan shug'ullangan, ayni paytda tabiblik ham qilgan. U kuchli nufuzga ega, tasavvuf g'oyalari bilan tanish shaxs bo'lgan.

Qo'zg'olon 1238- yili Buhoro shahri yaqinida joylashgan Torob qishlog'ida boshlangan.

Uning tarafdorlari ko'paygandan ko'payib borgan. Qisqa fursat ichida atrof qishloqlardan juda ko'p sabr kosasi to'lgan xalq vakillari to'plangan. Mahmud Torobiy ularga murojaat qilib: „*Ey toliblar! Kimda-kim shu muqaddas zaminni nopoklardan tozalashni istasa, qo'liga qurol olsin! Jonajon yurtimizda ulardan bitta ham qolmaguncha kurashish uchun bel bog'lasin!*“ deydi.

Qo'zg'olonchilar mo'g'il bosqinchilari va ular xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mol-mulkini beva-bechoralarga taqsimlab berishgan. Qo'zg'olonni bostirish uchun Karmanadan yuborilgan mo'g'il qo'shinlari Buxoro atrofida tormor keltirilgan. Bu jangda Mahmud Torobiy halok bo'lgan.

Karmana yaqinidagi Raboti Malik (hozirgi Navoiy tumani markazi) da bo'lgan shiddatli jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan.

Garchi qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, u Turkiston xalqlarining ozodlik harakatlari tarixida alohida o'rin tutadi, bu qo'zg'olon mo'g'illar istibdodi ildiziga ma'lum darajada zarba berdi.

Mahmud Torobiy qabri ustiga XIII asrda qurilgan daxma Vatanimiz mustaqillikka erishgach, qayta ta'mirlandi. Buxoro viloyati Jondor shaharchasida unga haykal o'rnatilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy

(1875—1919)



Turkistonda yangi yo'nalishdagi publitsistika, dramaturgiya, teatr madaniyati, sahna san'atining tug'ilishi, o'zbek matbuoti hamda pedagogikasining tug'ilishi bevosita Behbudiy nomi bilan bo'g'liq.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil Samarqandda ruhoniylar oilasida tavallud topgan, eski maktab va madrasada o'qigan, qozixonalarda mirzolik va muftiylik qilgan turkiy xalq ma'rifati fidoyilaridan biridir. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda jaddichilik harakatining asoschisi va karvonboshisidir. 1918-yilda Samarqandda tuzilgan „Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi“da maorif komissari lavozimida ishlay boshladi. 1920-yili Shahrisabzda inqilobiy favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magida Buxoro amiri odamlari tomonidan qo'lga olinib, Qarshi shahrida pinhona qatl etildi.

Buyuk ma'rifatparvarning g'oyalari, faoliyati tarixda qoldi va orzu-umidlari mustaqillik sharofati bilan ro'yobga chiqmoqda.

Behbudiyning adabiy va ilmiy merosi: „Padarkush“ dramasi (1911), risolalari: „Aholi geografiasiga kirish“, „Qisqacha umumiy geografiya“, „Tarixi islom“ va boshqalar. Maqolalari: „Turkiston idorasi“, „Turkistonda maktab jarida“, „Buxoroda usuli jadid“, „Yoshlarga murojaat“, „Ehtiyoji millat“, „Ikki emas, to'rt til kerak“, „Buxoro xonligiga sayohat“, „Felyeton“ va boshqalar.

Abdurauf Fitrat

(1886—1938)

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886- yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. Fitrat millatchi, inqilob dushmani degan yolg'on va qabih da'volar bilan 1937-yilning 27-aprelida hibsga olingan va 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan.



„Fitrat“ uning adabiy taxallusi bo'lib, tug'ma tabiat, tug'ma iste'dod, yaratilish ma'nolarini anglatadi. Uning otasi savdogarlik bilan shug'ullangan, o'qimishli shaxs bo'lgan. Fitrat dastlab eski maktab va Mir Arab madrasasida ta'lim olib, 1909-yili „Jamiyati xayriya“ning ko'magida Istanbulga o'qishga boradi. Uning dastlab yaratilgan „Munozara“ (1909), „Sayyohi hindi“ („Hind sayyohi“) (1911), „Rahbari najot“ (1915) asarlari nafaqat badiiy va diniy, balki ijtimoiy va falsafiy, ma'rifiy va axloqiy janrdagi asarlar edi. Ularning mohiyatida jadidchilik g'oyalari yotar edi. Bu asarlarda xalqning o'tmishi va qadriyatlarini haqida qayg'urish, millatning istiqbolini yoritish haqidagi g'oyalar asosiy o'rin egallaydi.

Fitratning adabiy merosi: „Sayha“ (she'riy to'plam), „Begijon“ (1916), „Abo Muslim“ (1916), „Temur sag'anasi“ (1918), „O'g'uzxon“ (1919), „Chin sevish“ (1921), „Hind ixtilochilari“ (1923), „Arslon“ (1925), „Abulfayzxon“ (1924) va boshqa pyesalar.

Mustaqillik yillarida Buxoroda Fitrat bog'i tashkil etildi. 1991-yil 25-sentabrda (vafotidan keyin) Fitrat Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Abdulla Avloniy

(1878—1934)

Abdulla Avloniy — davlat va jamoat arbobi, fan va maorif rivojiga katta hissa qo'shgan olim, shoir va jurnalist, jadidchilik harakatining rahbarlaridan biridir. U 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. 1934-yil 24-avgustda Toshkentda vafot etgan.



O'z davri boshlang'ich maktablari uchun bir nechta o'quv qo'llanmalari muallifidir. Millat kelajagi uchun jon kuydirgan ma'rifatparvar shaxs. U „Shuhrat“ (1907), „Turon“ (1917) nomli gazetalar chiqardi. „Turkiy Guliston yoxud axloq“ asari orqali bir qancha tarbiyaviy masalalarni o'rtaga tashlaydi. Asar bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Avloniyning adabiy merosi: „Birinci muallim“ (1911), „Ikkinchi muallim“ (1912), „Turkiy Guliston yoxud axloq“ (1913), „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ (1909—1916), „Pinak“ (1916), „Biz va siz“ (1917), „Ikki muhabbat“, „Portugaliya inqilobi“ va boshqalar.

Abdulla Qodiriy

(1894—1938)



Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog'bon oilasida tug'ilgan. 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olingan va to'qqiz oylik qamoqdagi so'roq, qiynoq, tahqir, xo'rliklardan so'ng 1938-yil 4-oktabrda pinhona qatl etilgan.

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida roman janriga asos solgan va o'z asarlarida xalqning maishiy va ijtimoiy hayoti manzaralarini tasvirlash orqali uning ma'naviy va ruhiy go'zalligini, orzu-istaklarini, tarixini ko'rsatishga intilgan adib. Uning „O'tkan kunlar“ romani o'z davrida o'zbek adabiyotida olamshumul voqea bo'lib, u millatning to'ng'ich romani hisoblanadi. „Mehrobdan chayon“ romani va boshqa bir qancha hikoya, ocherk va hajviyalari bugungi kunda ham kitob javonlaridagi eng sevimli asarlardan biri hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning adabiy merosi: „O'tkan kunlar“ (1926), „Mehrobdan chayon“ (1929), „Obid ketmon“ (1934), „Millatimga“, „Ahvolimiz“, „Baxtsiz kuyov“, „Juvonboz“

(1914), „Uloqda“, „Kalvak Mahzumning xotira daftaridan“ (1923—1927), „Toshpo‘lat tajang nima deydi?“ va boshqalar.

A. Qodiriy mustaqillik davrida Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti (1991) va „Mustaqillik“ ordeni (1994) bilan (vafotidan so‘ng) taqdirlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan 1991-yil 6-fevralda Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta‘sis etilgan.

Abdulhamid Cho‘lpon

(1898—1938)

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon — XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri. U 1898-yilda Andijonda tug‘ilgan. Buyuk ma‘rifatparvar va serqirra faoliyat sohibi Cho‘lpon 1937-yilda qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan. Uning otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o‘g‘li o‘z davrining nozikta‘b kishilaridan bo‘lib, hajviy she‘rlar ham yozgan. Cho‘lpon madrasa va rus-tuzem maktabida tahsil olgan. U, bir tomondan, an‘anaviy sharqona bilimlardan, ikkinchi tomondan, yevropacha tahsil va tarbiyadan bahramand bo‘lgan. „Kecha va kunduz“ nomli roman muallifi. She‘riy ijodining cho‘qqisi sifatida „Go‘zal“, „Buzilgan o‘lkaga“, „Xalq“, „Vijdon erki“, „Kishan“ singari she‘rlarini keltirish mumkin.



Cho‘lponning adabiy merosi: „Kecha va kunduz“ romani, „Do‘xtir Muhammadyor“, „Buloqlar“, „Uyg‘onish“, „Tong sirlari“, „Qor qo‘ynida lola“, „Novvoy qiz“, „Oq podshoning in‘omi“ hikoyalari, „Yorqinoy“, „Mushtumzo‘r“, „O‘rtoq Qarshiboyev“ kabi pyesalardan iborat.

Mustaqillik yillarida Cho‘lponning 100 yilligi keng nishonlanib, vafotidan keyin unga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi. Shuningdek, shoir „Mustaqillik“ ordeni bilan taqdirlandi.



„Yoshlarni sog‘lom, matonatli, jasur qilib tarbiyalashda sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyati beqiyos“.

Islom Karimov.

O‘ZBEKISTON SPORTI

Hozirgi kunda O‘zbekistonda sportning ellikdan ortiq turi rivojlanmoqda. Davlatimiz tomonidan mazkur sohaga tegishli bir qancha tadbirlarning amalga oshirilishi, jumladan, davlat ahamiyatiga molik chora-tadbirlarning qabul qilinishi hamda qator qonunlarning chiqarilishi aholining sportga bo‘lgan qiziqishini tobora oshirib kelmoqda. 1992- yilda qabul qilingan „Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida“gi qonun Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi qabul qilgan dastlabki qonunlardan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov „Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga tez va oson tanita olmaydi“, – deb e‘tirof etgan. Mamlakatimizda dunyoga dong taratgan sportchilar juda ko‘p. Ayniqsa, mustaqillik yillarida bu sohaga e‘tiborning kuchaytirilishi dunyo miqyosida o‘tkazilayotgan turli nufuzli musobaqalarda vatanimiz bayrog‘ining hilpirashiga, mamlakatimizning butun yer yuziga tanilishiga sababchi bo‘lmoqda. Mamlakatimiz sharafini himoya qilib, jahon chempioni unvoniga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimizning g‘alabalarini bunga misol qilib keltirish mumkin. Erkin kurash bo‘yicha A.Taymazov, S. Tigiyev, dzyudo bo‘yicha A.Tangriyev, qilichboz S. Ro‘ziyev, basketbolchi R. Salimova, Olimpiya o‘yinlari chempionlari E. Sa‘diy, S. Diomidov, polvonlardan M. Xadarsev, A. Fadzayev, mashhur chavandoz M. Islomov, og‘ir atletika bo‘yicha jahon chempioni Erkin Karimov, shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov, tennis bo‘yicha Iroda To‘laganova va boshqa ko‘pgina sportchilar jahonga mashhur.

Mustaqillik yillarida Toshkentda „Yunusobod“, „Jar“ kabi va boshqa viloyatlarda ham bir necha sport-sog‘lomlashtirish majmualari qurildi.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Xalqaro Olimpiya

harakatiga qo'shgan katta hissasi uchun Xalqaro Olimpiya qo'mitasining oliy mukofoti – Olimpiada Oltin ordeniga sazovor bo'ldi. Osiyo Olimpiya Kengashi ordeni bilan mukofotlandi.

1994-yilda Xirosima shahrida o'tkazilgan XXII Osiyo o'yinlarida 12 mamlakat sportchilari orasida O'zbekiston yigit va qizlari komanda hisobida 5-o'rinni olib, 11 ta oltin, 10 ta kumush, 20 ta bronza medalini qo'lga kiritdilar.

O'zbekistonning milliy futbol terma jamoasi birinchi marta Osiyo o'yinlari chempioni bo'ldi.

AQSHning Atlanta shahrida o'tkazilgan XXVI Olimpiada o'yinlarida o'zbek sportchilari dunyoning o'nta eng yaxshi sportchilari qatoridan o'rin egalladilar. Armen Bagdasarov (dzyudo) va Karim To'laganov (boks) sovrinlar bilan taqdirlandi.

2000-yilda Avstraliyaning Sidney shahridagi XXVII Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston sportchilari 1 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medallarining sohiblari bo'lishdi.

Ular Muhammadqodir Abdullayev, Sergey Mixaylov, Rustam Saidov, Artur Taymazovlardir.

1994–1999-yillarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijonda dunyodagi eng kuchli tennischilarning „Chellenjer“, „Satellit“, „Devis kubogi“ xalqaro turnirlari bo'lib o'tdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda sportning tennis turi jadal rivojlanmoqda. Iroda To'laganova, opa-singil Biktyakovalar, Natalya Nikitina, Komila Dadaxo'jayeva, Oleg Ogorodov, Vadim Kutsenko kabi tennischilar turli xalqaro turnirlarda g'olib chiqib, nufuzli sovrinlarni qo'lga kiritdilar.

1999-yilda Toshkentda milliy kurash bo'yicha birinchi chempionat o'tkazildi. Unda 50 mamlakatdan sportchilar qatnashdi.

2008-yil 8-avgust kuni Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shahrida bo'lib o'tgan XXIX yozgi Olimpiada o'yinlarida dunyoning 205 davlatidan 16 000 sportchi ishtirok etdi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasining 58 nafar sportchilari ham bor edi. Ular sportning 15 turi bo'yicha yunon-rum va erkin kurash, boks, dzyudo, taekvondo, og'ir atletika, o'q otish, sport gimnastikasi, baydarka va kanoeda eshkak eshish, tramplin, velosport-shosse, suzish, akademik eshkak eshish, yengil atletika va tennis bellashuvlarida O'zbekiston Respublikasi sharafigini munosib himoya qildilar. Mazkur olimpiada o'yinlarida o'z-

bekistonlik sportchilar 1ta oltin, 2ta kumush, 3ta bronza medallarni qo'lga kiritdilar.

Pekin Olimpiada o'yinlarida sovrindor bo'lgan sportchilar:

1. **Artur Taymazov** – erkin kurash bo'yicha oltin medal.
2. **Abdulla Tangriyev** – dzyudo bo'yicha kumush medal.
3. **Soslan Tigiyev** – erkin kurash bo'yicha kumush medal.
4. **Yekaterina Xilko** – trampolda sakrash bo'yicha bronza medal.
5. **Rishod Sobirov** – dzyudo bo'yicha bronza medal.
6. **Anton Fokin** – sport gimnastikasi (brus) bo'yicha bronza medal.

Navbatdagi XXX yozgi Olimpiada o'yinlari 2012-yil Londonda bo'lib o'tadi.

O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami Ravshan Ermatov o'zbek futbolining shuhratini jahonga tanitish, xalqaro maydonda uning nufuzini yuksaltirishda ibrat va namuna ko'rsatmoqda. FIFA referisi Ravshan Ermatov O'zbekiston milliy futbol hakamlari maktabini rivojlantirish ishiga qo'shgan munosib hissasi uchun „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan mukofotlandi.



Futbol o'yinlari hakami Ravshan Ermatov.

Shunday qilib mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport rivojlandi, yangi ma'no-mazmun bilan boyidi, jahon sportiga qo'shildi va xalqaro maydonda salmoqli o'rinni egalladi.

XXI ASR ISTIQBOLIMIZ TIMSOLLARI

XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi xalq kuchli bo'ladi? Bu savolga aholisi intellektual nuqtayi nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo'lib unib-o'sayotgan davlat, deb javob qaytarish mumkin.

Islom Karimov.

Mustaqillikdan so'ng o'tgan davr ichida sport sohasida ham misli ko'rilmagan o'sish bo'ldi.

O'zbekistonda istiqloq davrida bir-biridan muhtasham, jahon andozalariga mos keladigan yuzlab sport inshootlari bunyod etildi, „**Yunusobod**“ tennis saroyi, „**Jar**“ sport-sog'lomlashtirish majmuyi, Respublika Milliy banki sport-sog'lomlashtirish maskani, viloyatlar markazlarida qad rostlagan zamonaviy tennis kortlari va boshqa sport inshootlarini yaqin o'tmishda faqat orzu qilish mumkin edi, xolos.

1996-yili AQSHning **Atlanta** shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida mamlakatimizning 76 nafar sportchisi qatnashdi va o'z mahoratini namoyish etdi.

Dzyudochi **Armen Bagdasarov** kumush, bokschi **Karim To'laganov** bronza medalini qo'lga kiritdi.

2000- yili Avstraliyaning **Sidney** shahrida o'tgan Olimpiya o'yinlarida esa 77 nafar sportchimiz O'zbekiston sharafini himoya qilishdi. Bokschilardan **Muhammadqodir Abdullayev** oltin, **Rustam Saidov** va **Sergey Mixaylov** bronza, erkin kurashchi **Artur Taymazov** kumush medallarga sazovor bo'lishdi.

1994- yili Lillixerda o'tgan qishki Olimpiya o'yinlarida hamyurtimiz **Lina Cheryazova** fristayl bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritdi.

Osiyo va jahon chempionatlarida ham mamlakatimiz sportchilari ko'plab yorqin g'alabalarga erishdilar. 1992- yili jahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi ikkinchi o'rinni egalladi.

1994- yili Yaponiyaning **Xirosima** shahrida yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida futbolchilarimiz yuksak mahorat ko'rsatib, chempionlikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar.

Bugun O'zbekiston faqat iste'dodli sportchi o'g'il-qizlari bilangina emas, balki yirik xalqaro turnirlar o'tkaziladigan mamlakat sifatida ham dunyoga tanildi.

O'zbekiston sporti XXI asrga mustahkam poydevor, qat'iy ishonch bilan qadam qo'ydi.

Yaqin kelajakda respublikamiz sporti yanada yuksak natijalarga erishadi. O'tgan yillar ichida mamlakatimizda yoshlarni jismoniy barkamol etib tarbiyalashning o'ziga xos yangi tizimi yaratildi. Maktab o'quvchilari o'rtasida „Umid nihollari“, litsey va kollej talabalari o'rtasida „Barkamol avlod“, oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida esa, „Universiada“ musobaqalari yo'lga qo'yildi.

XXIX yozgi Olimpiada o'yinlari Pekin – 2008

Xitoy poytaxti Pekin shahrida bo'lib o'tgan XXIX yozgi Olimpiada o'yinlari haqli ravishda dunyo hamjamiyati e'tiborini 16 kun (8–24 avgust) davomida bir nuqtaga qarata oldi.

Olimpiada o'yinlari dunyoning 205 davlatini „Yagona dunyo – yagona maqsad“ shiori ostida birlashtirdi.

Olimpiadaning ochilishi marosimi xitoyliklar muqaddas biluvchi 8 raqami bilan boshlandi. Ya'ni 2008- yilning 8-oyi, 8-sanasi, soat 8 dan 8 daqiqa, 8 soniya o'tganda osmonda uchirilgan 208 ta oq kabutar Olimpiada musobaqalariga start berdi.

Olimpiada musobaqalarida qatnashayotgan 205 davlatning 10500 nafar sportchisi sportning 28 turida kuch sinashishdi.

O'zbekistonning 58 sportchisi esa 15 sport turida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Sportchilarimizning g'alabaga bo'lgan ishtiyoqi musobaqaning dastlabki kunlaridan sezila boshladi. 60 kg vazn toifasida hamyurtimiz dzyudochi – **Rishod Sobirov** ilk bronza medalini qo'lga kiritdi. 100 kg. vazn toifasida gilamga tushgan dzyudochi **Abdulla Tangriyev** kumush medal sohibi bo'ldi.

Yana bir polvonimiz erkin kurashchi **Soslan Tigiyev** kumush medal sohibi bo'ldi.

Yana ikki sportchimiz **Yekaterina Xilko** va **Anton Fokin** Olimpiadaning umumiy 302 medalidan 2 ta bronza medaliga egalik qilishdi.

Endi navbat erkin kurashchimiz **Artur Taymazovga** qaratildi.

Arturning natijalariga e'tibor bering: ozarbayjonlik nomdor kurashchi Ali Isayev va kubalik Disney Rodricheslarni bir xil — 3:1 hisobida mag'lub etib, yarim finalda slovakiyalik David Musilbesga hech qanday imkoniyat qoldirmadi — 3:0. Endi final. Rossiyalik Baxtiyor Ahmedov bilan kechgan murosasiz jangda Artur Taymazov muddatidan oldin g'alaba qozonib **oltin medalni** qo'lga kiritdi. Jamoamiz hisobidagi olti medal yurtimizni 20 pog'ona yuqoriga olib chiqdi.

O'zbekiston Olimpiadada qatnashuvchi 205 davlat bo'yicha 40 o'ringa loyiq ko'rildi.

Prezidentimiz I. A. Karimov Oqsaroyda Olimpiada g'olibi bo'lgan sportchilarimizni, ularning ustoz va murabbiylarini qabul qildi.

Ularni yuksak g'alabalari bilan tabriklab, shunday istak bildirdi: „Bugungi imkoniyatdan foydalanib, ilgari aytgan da'vatni yana bir bor takrorlab aytishga ijozat bergaysiz: bo'sh kelmanglar, aziz farzandlarim, ertangi kun bizniki, marra bizniki...“

MILLAT G'URURI — MAMLAKAT IFTIXORLARI

A'ZAM, FARRUX VA PARVIZ ABDUMAVLONOVLAR

Aka-uka Abdumavlonovlar Bekobod tumanidagi Zafar qishlog'ida tug'ilganlar. A'zam, Farrux va Parviz karate bo'yicha O'zbekiston, Osiyo va jahon chempionlari, qator xalqaro turnirlarda g'olib chiqishgan.





AZAMAT-Ali QALANDAROV

1973- yilning 23- martida Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. O'zbekistonning mutlaq chempioni, 3- dan „Qora belbog‘“ sohibi. Uch karra Osiyo chempionati sovrindori, ikki karra Osiyo kubogi hamda jahon kubogi g'olibi (2000- yil Shotlandiya).

Birinchi bo'lib „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvoni ta'sis etilgan.



ARTUR TAYMAZOV

1979- yilning 20- iyulida tug'ilgan. Erkin kurash bo'yicha XXVII Olimpiya o'yinlarining kumush medali sohibi, Osiyo chempioni, xalqaro turnirlar g'olibi.

Afinada o'tkazilgan XXVIII hamda Pekinda o'tkazilgan XXIX yozgi Olimpiada o'yinlari g'olibi.



RUSTAM QOSIMJONOV

1979- yilning 5- dekabrda Toshkentda tug'ilgan. Shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni, jahon chempionati mintaqaviy musobaqasi g'olibi, Butunjahon shaxmat olimpiadasida shaxsiy hisobda bronza medaliga sazovor bo'lgan. Xalqaro grossmeyster.

„O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni hamda „O'zbekiston belgisi“ ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

ALEVTINA KIM

1981- yilning 27- aprelida Toshkent viloyatida tug'ilgan. Taekvondo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Jahon va Yevropa chempioni. „Shuhrat“ medali sohibasi.



O'TKIRBEK HAYDAROV

1974- yilning 25- yanvarida Andijonda tug'ilgan. Boks bo'yicha jahon chempioni. „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“, „O'zbekiston iffixori“ faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.



ALISHER MUXTOROV

1973- yilning 26- mayida Qarshi shahrida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha Osiyo chempionatining kumush medali sovrindori.

„Shuhrat“ medali sohibi.



AKOBIR QURBONOV

1975- yilning 29- iyulida Buxoroda tug'ilgan. Sambo bo'yicha to'rt karra Osiyo chempioni, Jahon universiadasida g'olibi, jahon kubogi sohibi, jahon chempioni. Milliy kurash bo'yicha jahon chempioni. „O'zbekiston iffixori“ faxriy unvoni hamda „O'zbekiston belgisi“ ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.





ABDULLA TANGRIYEV

1981- yilning 28- martida Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha yoshlar o'rtasida Osiyo birinchiligi g'olibi.

Sidney olimpiadasi qatnashchisi, xalqaro miqyosdagi sport ustasi.

2008-yilda Pekin shahrida bo'lib o'tgan XXIX Olimpiya o'yinlari kumush medali sohibi.



KARIM TO'LAGANOV

1973- yilning 28- iyulida Toshkent viloyatida tug'ilgan. Boks bo'yicha Markaziy Osiyo o'yinlari chempioni. Osiyo chempionati g'olibi va Olimpiya o'yinlarining bronza medali sovrindori. „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvoni, „Mehnat shuhrati“ ordeni bilan taqdirlangan.



KAMOL MURODOV

1974- yilning 29- noyabrda Buxoro viloyatida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha Osiyo o'yinlari bronza medali sovrindori. Milliy kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



FARHOD TO'RAYEV

1974- yilning 14- iyunida Buxoro viloyatida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha Osiyo chempionatining kumush va bronza medallari sovrindori, jahon chempionatining kumush medali sohibi. „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

DILSHOD YORBEKOV

1974- yilning 5- yanvarida Samarqand viloyatida tug'ilgan. Boks bo'yicha Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlarining kumush va bronza medallari sovrindori, Jahon chempionati va kubogi hamda Yaxshi niyat o'yinlari bronza medallari sohibi. „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvoni, „Do'stlik“ ordeni, „O'zbekiston belgisi“ ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.



BAHODIR QURBONOV

1972- yilning 5- dekabrda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Yunon-rum kurashi bo'yicha Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlarining kumush va bronza medallari sovrindori. Sidney Olimpiadasida 5-o'rinni egallagan. „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



BAHROM AVAZOV

1970- yilning 3- yanvarida Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. Milliy kurash bo'yicha Amir Temur va Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan xalqaro musobaqalarning mutlaq g'olibi, jahon chempioni. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



ADHAM OCHILOV

1976- yilning 7- aprelida Toshkent shahrida tug'ilgan. Erkin kurash bo'yicha yoshlar o'rtasida Osiyo chempioni, jahon chempionati kumush medali sovrindori. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi. „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan.





ARMEN BAGDASAROV

1972- yilning 31- iyulida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha to'qqiz karra O'zbekiston chempioni. XXVI Atlanta Olimpiadasi kumush medali sohibi (1996), Osiyo chempioni. Butunjahon talabalar Universiadasining kumush medali sovrindori. „Mehnat shuhrati“ ordeni va „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.



TIMUR TO'LYAKOV

1975- yilning 11- fevralida tug'ilgan. Andijonda voyaga yetgan. Boks bo'yicha qit'a chempionati va Osiyo o'yinlari kumush medallari sohibi, „Yaxshi niyat“ o'yinlari g'olibi. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



SHUHRAT XO'JAYEV

1969- yilning 11- iyulida Buxoroda tug'ilgan. Sambo bo'yicha jahon va to'rt karra Osiyo chempioni, ikki bor jahon va qit'a kubogi sohibi, milliy kurash bo'yicha jahon chempionati bronza medali sovrindori.

„O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

MUHAMMADQODIR ABDULLAYEV

1973- yilning 15- noyabrida Andijon viloyatida tugʻilgan. Boks boʻyicha Osiyo va jahon chempioni, Osiyo va Olimpiya oʻyinlari gʻolibi. „Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan sportchi“, „Oʻzbekiston iftixori“ faxriy unvonlari, „El-yurt hurmati“ ordeni hamda „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan. 1999- va 2000-yillarda mamlakatimizda „Yilning eng yaxshi sportchisi“ deb topilgan.



OTABEK QOSIMOV

1984- yilning 31- iyulida Toshkent shahrida tugʻilgan. Karate boʻyicha Oʻzbekiston chempioni.



NODIR XOʻJAYEV

1989- yilning 4- iyulida Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tugʻilgan. Karate boʻyicha 1-dan sohibi. Oʻzbekistonning ikki karra chempioni.



RUSTAM SAIDOV

1978- yilning 9- fevralida tugʻilgan. Boks boʻyicha Markaziy Osiyo oʻyinlari gʻolibi, Osiyo chempioni, Sidney Olimpiadasi bronza medali sovrindori.





MIRJALOL QOSIMOV

1970- yilning 17- sentabrida Toshkent shahrida tug'ilgan. Futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon va Yevropa chempioni. XII Osiyo o'yinlari g'olibi.



MAHTUMQULI MAHMUDOV

1969- yilning 29- iyulida Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. Kurash bo'yicha qator xalqaro turnirlar g'olibi.

Jahon chempioni. „O'zbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



MANZURA INOYATOVA

1985- yilning 12- fevralida Navoiy viloyatida tug'ilgan. Stol tennisi bo'yicha Butunjahon o'smirlar o'yinining bronza medali sovrindori, Jahon o'yinlari va Yevropa ochiq kubogi g'olibi. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi.



LAZIZBEK ZOKIROV

1976- yilning 3- sentabrida Jizzax viloyatida tug'ilgan. Boks bo'yicha to'rt karra mamlakat chempioni, Osiyo chempionatining kumush va bronza medallari sovrindori, Osiyo o'yinlarining bronza medali sohibi, jahon kubogi g'olibi. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi. „Ozbekiston iftixori“ faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



YULDUZ HAMROQULOVA

1989- yilning 2- aprelida Jizzax shahrida tug'ilgan. Shaxmat bo'yicha qizlar o'rtasida uch karra O'zbekiston birinchiligi g'olibi, Osiyo birinchiligining bronza medali sovrindori, Jahon birinchiliklari qatnashchisi.



TOSHTEMIR MUHAMMADIYEV

1968- yilning 1- mayida Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. Kurash bo'yicha jahon chempioni.

„El-yurt hurmati“ ordeni sohibi, O'zbekistonning eng yaxshi sportchisi (1999-yil).



MUSTAQILLIKNING ASOSIY TUSHUNCHA VA G'OYALARI

Milliy g'oya — inson va jamiyat hayotiga ma'no- mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyi.

O'zbekiston xalqining milliy g'oyasi — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish.

Bunyodkor g'oya — insonni ulug'laydigan, uning kuch-qudrati va salohiyatini oshirib, xalqi, vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyadir.

Vayronkor g'oya — turli ta'sirchan vositalardan foydalanib, odamlarni soxta va puch g'oyalarga ergashtiruvchi, ularning kuch-qudratini buzg'unchilik va jinoyatga yo'naltiradigan, insoniyat uchun faqat kulfat keltiradigan g'oyadir.

Mafkura — muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay, erkin va ozod yashash, o'zini o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, g'oyalari majmuyi, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri.

Mehr-muruvvat, oqibat — insonning qadriga yetish, hol so'rash, og'irini yengil qilish, xayr-saxovat ko'rsatish, yetimlarning boshini silash kabi ulug' fazilatlar har bir insonni bezab turadigan, uning samimiyligi, insoniyligini belgilab

beruvchi asosiy xislatlardan biridir. Insonlarga yaxshilik qilish muruvvat va oqibatning asosidir.

Huquqiy madaniyat — asosiy Bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyani bilish, undagi moddalarga amal qilish, o'z konstitutsion huquq va burchlarini tushunib yetish, amaldagi qonunchiligimizni hurmat qilgan holda unga amal qilish, fuqarolar huquq va manfaatlariga xizmat qiladigan me'yoriy, huquqiy hujjatlardan xabardor bo'lish va albatta, ulardan adolatli foydalanishdir.

Milliy g'urur — o'z millatining chinakam fidoyisi bo'lgan har bir insonga xos ichki tuyg'udir. Milliy g'ururi yuksak inson o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'ladi. Milliy g'ururi mustahkam bo'lgan millatni hech qachon yengib bo'lmaydi.

Milliy madaniyat — ma'lum bir elat, millat, xalq tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan, ularning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini ifoda etgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuyi.

Milliy manfaatlar — millatga, milliy davlatga moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda keltiruvchi omildir.

Ma'naviyat — (arabcha so'z bo'lib, ma'nolar majmuyi) — kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari, inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushunchalari majmuyi. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birini taqozo etadi.

Ma'rifat — (arabcha arafa, bilmoq so'zidan olingan) ta'lim-tarbiya, iqtisodiy-siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmuyi asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat. Ma'rifat tushunchasi madaniyat va ma'naviyat tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.

Mafkura — (arabcha so'z bo'lib, fikrlar, nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) — jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: „O'zbekiston“, 1992.
2. *I.A. Karimov*. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag. T.: „O'zbekiston“, 1993.
3. *I.A. Karimov*. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: „O'zbekiston“, 1993.
4. *I.A. Karimov*. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: „O'zbekiston“, 1994.
5. *I.A. Karimov*. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: „O'zbekiston“, 1995.
6. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: „O'zbekiston“, 1997.
7. *I.A. Karimov*. Barkamol avlod orzusi. T.: „O'zbekiston“, 1998.
8. *I.A. Karimov*. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T.: „O'zbekiston“, 1998.
9. *I.A. Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: „O'zbekiston“, 1998.
10. *I.A. Karimov*. Oллоh qalbimizda, yuragimizda. T.: „O'zbekiston“, 1999.
11. *I.A. Karimov*. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot—pirovard maqsadimiz. T.: „O'zbekiston“, 2000.
12. *I.A. Karimov*. Tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: „O'zbekiston“, 2001.
13. *I.A. Karimov*. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T.: „O'zbekiston“, 2002.
14. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: „O'zbekiston“, 2007.
15. *I.A. Karimov*. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: „Ma'naviyat“, 2008.
16. „Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida“ gi O'zR Prezidenti (1999-yil 12-may), Vazirlar Mahkamasi (1999-yil 22-iyul) qarorlari.
17. „O'zbekiston yuksalish yo'lida“ fotoalbomi (o'zbek, rus, ingliz tillarida). T.: „O'zbekiston“, 2000.
18. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: „O'zbekiston“, 2010.
19. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: „Davlat ilmiy nashriyoti“, 2002. 1— 12- jildlari.
20. Istiqlol fidoyilari. T.: „Ma'naviyat“, 2002.

21. Buyuk siymolar, „O‘qituvchi“ NMIU, 2010.
22. XX asr Istiqbolimiz timsollari, „O‘zbekiston“, 2001.
23. Ma‘rifat va ma‘naviyat fidoyilari. „O‘qituvchi“ NMIU, 2010.
24. „Mustaqil O‘zbekiston sporti“. Metodik-bibliografik qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2006.
25. „O‘zbek xalqi bayramlari“. Metodik-bibliografik qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2006.
26. „Toshkent deya atalur...“. Metodik-bibliografik qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
27. „O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlari“. Metodik-bibliografik qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2007.
28. „Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari“. O‘MKHT o‘quv muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.
29. „O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua“ O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. Toshkent, 2010.
30. Internet ma‘lumotlari.



MUNDARIJA

Davlat ramzlari -----	3
O'zbekiston — Vatanim manim -----	9
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov -----	12
O'zbekiston — Prezidentlik respublikasi -----	16
O'zbekiston Respublikasining orden va medallari -----	18
Umumxalq bayram kunlari -----	20
O'zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent -----	21
Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari -----	33
Mustaqillik ne'matlari -----	40
Diniy-ma'rifiy obidalar -----	43
Muzeylar -----	45
Bog'lar va hiyobonlar -----	51
Monument va haykallar -----	54
Teatr va tomoshagohlar -----	57
Mustaqillik sharofati bilan -----	62
Mustaqillik yillarida UNESCO bilan hamkorlikda quyidagi buyuk allomalar, davlat arboblari, mutafakkirlar va shoirlarimizning hamda tarixiy, ko'hna shaharlarimizning yubileylari nishonlandi -----	73
Tarixiy shaxslar -----	74
O'zbekiston sporti -----	92
XXI asr Istiqlolimiz timsollari -----	95
Millat g'ururi — mamlakat iftixorlari -----	97
<i>Mustaqillikning asosiy tushuncha va g'oyalari</i> -----	106
Foydalanilgan adabiyotlar -----	108

Tuzuvchilar:
FARHOD XOLSAIDOV
O'RINBOY BOBOYOROV
FERUZA HASANOVA

MA'NAVIYAT –
QALB
QUYOSHI

(ma'lumotnoma)

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2011

Muharrir *S. Mirzaxo'jayev*
Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Musahhah *M. Ibrohimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Yo'ldosheva*

Nashriyot litsenziyasi AI №161. 14.08.2009. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 9.03.2011. Bichimi 60×90¹/₁₆. Kegli 11 shponli. Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozı. Shartlı b. t. 7,0. Nashr t. 6,34.
5000 nusxada bosildi. Buyurtma № 39—11.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129. Navoiy ko'chasi, 30- uy. Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko'chasi, 1- uy.
Shartnoma № 07—12—11.

2800p.

71.04 (5Y)
M 34

Ma'naviyat — qalb quyoshi/ ma'lumotnoma
tuzuvchilar: F. Xolsaidov, O'. Boboyorov, F. Ha-
sanova; Mas'ul muharrir N. Karimov. —T.;
„O'qituvchi“ NMIU, 2011. - 112 b.

ISBN 978-9943-02-180-8

УДК: 37.017.92 (575.1)(075)
ББК 71.04 (5Y)я2

